

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
SAMARQAND VILOYAT PEDAGOGLARNI METODIKALARGA
O'RGATISH MILLIY MARKAZI

M.RAXIMQULOVA, H.QORABOYEV, A.XUDAYAROV, N.PARDAYEV

**ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI
DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH**

(Uslubiy qo'llanma)

“QAMAR MEDIYA” NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2022

UO'K 37.026:811.512.133(072

KBK 74.200

Q 59

M.Raximqulova, H.Qoraboyev, N.Pardayev, A.Xudayarov Ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish. Uslubiy qo'llanma.- Toshkent: "Qamar media" nashriyoti, 2022-yil. 88 bet.

Ushbu uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarga ixtisoslashgan davlat ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan bakalavr va magistrantlar foydalanishlari mumkin. Mazkur uslubiy qo'llanmada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarga bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirishning shakl, metod va vositalari, metodikasi sharhlangan va metodik tavsiyalar keltirilgan.

Mas'ul muharrir:

M.Vafojeva – SamDU, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti boshlang'ich va texnologik ta'lim kafedrasida dotsenti.

Taqrizchilar:

M.Xazratqulov – P.f. bo'yicha falsafa (PhD) doktori

G.Fayzullayeva –

G.Fayzullayeva – P.f. bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Uslubiy qo'llanma hududiy markaz Ilmiy-metodik kengashining 2022-yil 1-iyuldagi 3-sonli yig'ilish qarori bilan nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8319-1-9

© M.Raximqulova, H.Qoraboyev, N.Pardayev, A.Xudayarov

© "Qamar media" nashriyoti

MUNDARIJA

Kirish	
Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining mazmuni	
Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini tashkil etishda o‘quv topshiriqlaridan foydalanish	
Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini baholash	
Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini shakil etishda interfaol metodlardan foydalanish.....	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarorida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib, ta’limi taraqqiy etgan mamlakatlar doirasida reyting bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlar yo‘nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

PIRLS- (Progress in International Reading Literacy Study) — bu turli mamlakatlarda boshlang‘ich sinfda tahsil oluvchi o‘quvchi yoshlarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu tadqiqotning maqsadi esa, dunyoning turli mamlakatlarida tahsil oluvchi boshlang‘ich sinf (4-sinf) o‘quvchilarini matnni o‘qish va tushunish darajalarini taqqoslovchi, shuningdek, mamlakatlar milliy ta’lim tizimida o‘qish savodxonligi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni taqqoslashga moslashgan xalqaro baholash loyihasi hisoblanadi.

Mazkur xalqaro tadqiqotlarda munosib ishtirok etish o'quvchidan o'qish savodxonligiga erishishni, matnni ongli o'qish bilan birgalikda, tahlil qila olish, mantiqiy mulohaza yuritib o'z munosabatini bildirish kabi xususiyatlarni talab etadi. Ushbu vazifalarni samarali hal etish esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn ustida ishlash va badiiy asarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ijobiy hal etiladi.

O'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda tilga oid amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga o'quvchilar egallagan ko'nikmalarini kundalik turmushda, hayotiy vaziyatlarda qo'llashlari bilan bog'liq fundamental bilimlar, tanqidiy fikrlash, kreativlik, muloqotchanlik, hamkorlikda ishlay olish bilan bog'liq murakkab masalalarni hal qila olish ko'nikmalari, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, maqsad sari intilish, moslashuvchanlik, liderlik, ilmiy xabardorlik bilan bog'liq shaxsiy fazilatlar shakllantirishga olib keladi.

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGINING MAZMUNI

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. 2020 - yil 23- sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 9- moddasida "Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan" [1.3] - deb takidlangan. Zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustivor yo'nalishlardan biri bu shaxsning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlantirishdan iboratdir, yani har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan tarbiya jarayonidir .

Bugungi kunda o'zida ta'lim - tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang'ich ta'lim jarayoni tashkil etish dolzarb mavzulardan biridir. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish va ulardan milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yo'llari amaliy jihatdan tadbiq qilinishi lozim . Bu o'rinda milliy axloq tarbiyasi, ma'naviy, ruhiy hamda milliy nafosat va jismoniy tarbiya boshlang'ich ta'lim bosqichida ustivor ahamiyat kasb etishi lozim . Bunda o'quv material shaklida berilgan ta'limiy matnlarda o'quvchilarda turli shakllarda axloqiy – ma'naviy tarbiya va milliy nafosat meyorlarini, diniy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi. [9.36] Mazkur vazifalar yechimini o'zida aks ettirgan, yangi milliy o'quv dasturi asosida tayyorlangan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligi ishlab chiqildi. Xo'sh ona tili va o'qish savodxonligi darsligi amaldagi o'qish va ona tili darsligidan nimasi bilan farq qiladi.

O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta

olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar mavjud.

Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan. Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham ishlab chiqilgan.

Eski darsliklar til strukturasi o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasi ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan. Amaldagi darslikdan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Yangi darslikda taqdim etilayotgan yangi didaktikada esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Amaldagi darsliklardagi tushunarsiz bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilar edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan. Tayyorlangan darslikda gapdan yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi

bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

O'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.



SUVNING VATANI

Baland tog'lar etagida bir buloq bo'lgan ekan. Uning suvlari toshib, irmoqqa aylanibdi. Irmog yurgan yo'llarda gullar o'sar, yam-yashil o'tloqlar paydo bo'larkan. Odamlar, o'simliklar, hatto yo'lda o'tlab yurgan echkilar ham unga **rahmat** aytisharkan.

Irmogning osmonga chiqib, atrofni tomosha qilgisi kelibdi. Quyoshdan yordam so'rabdi.

Quyosh uni qattiq qizdirgan ekan, bug'lanib bulutga aylanibdi. Bulut yurib-yurib zerikibdi.

Hech kimga foydasi **ham** tegmabdi.

“Ona tili” nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili

daralarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi.[16.41] Shuningdek, o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi

Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratiladi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi.

Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalarga qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan.



7. Tabiat va hayvonlarni asrash uchun o'z loyihangizni tuzing.


MEN TABIATNI ASRAYMAN

LOYIHA

Tabiatni asrash uchun sizga nimalar kerak?



Ishni nimadan boshlaysiz?



Bu ishlarni qilganingizdan so'ng, nimalar o'zgaradi?



Uyda, oilangiz davrasida o'z loyihangiz taqdimotini uyushtiring. Har bir masalani tartib bilan so'zlab berishga harakat qiling.



49

Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo'ladi.

Eski darsliklar til strukturasi o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasi ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.



- 1 She'rdagi "yoqdi", "oqdi", "boqdi" so'zlari nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi?
- 2 Yana qaysi so'zlarning ohangi bir-biriga o'xshab ketadi?
- 3 Nega bu she'rni osongina qo'shiq qilib aytish mumkin?



Rustamning boshi qotdi. U she'rdagi ayrim gaplarga tushunmayapti. Balki, unga siz tushuntirib berarsiz?



Ko'kda quyosh gulxan yoqdi,
Soylar yana to'lib oqdi.



Chiqib xazon ko'rpasidan
Boychechaklar kulib boqdi.



- ☹️ Quyosh qanday qilib gulxan yoqadi, axir uning qo'li yo'q-ku?
- ☹️ Boychechakning kulishini ko'rmagan ekanman. Boychechak ham kuladimi?
- ☹️ Bu she'rning nimasi yaxshi?



4. O'z fikringizni yozib bering.

34



Amaldagi darslikdan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldiriladi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga


joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi.

Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.



Rasmga qarang. Tasvirlangan narsalarni muhokama qiling.



Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslaridan o'quvchilarda shakllantiriladigan ko'nimalar, malaka talablari nimadan iborat ekanligini quydagi mavzular orqali ko'rishimiz mumkin.

1-SINF

Kun tartibi

Nutqiy mavzuning g'oyasi: o'quvchilarda vaqt bilan bog'liq umumiy tushuncha hosil qilish, vaqtni qadrlash, to'g'ri taqsimlash, bolani bir kunlik rejasini tuza olishga o'rgatish.

Tinglab tushunish: berilgan savolni tushunib tartibli javob bera oladi; eshitilgan gapdagi voqeani anglay oladi, uning qaysi hafta kuni, kunning qismida bajarilishini topa oladi.

Og'zaki nutq: soat vaqtlarini to'g'ri talaffuz qila oladi; savollarga og'zaki javob bera oladi; rasmga qarab o'z kun tartibi haqida ayta oladi; diaologli matnni o'qishda rolga kirisha oladi.

O'qib tushunish: soatni ifodalovchi raqamli konstruksiyani to'g'ri o'qiy oladi; (6:30, 12:00); matnda ifodalangan vaqt va faoliyat bog'liqligini tushuna oladi; she'rning syujetini tushuna oladi; o'xshatishlarni tushunish (umr – daryo); rasmlarda qanday amallar bajarilayotganini aniqlay oladi; dialogni o'qib tushuna oladi.

Yozma nutq: kun qismlarini yoza oladi; raqamlarni so'z bilan ifodalay oladi; soat necha bo'lganini yoza oladi; o'xshatishlarni qatnashtirib gaplar tuza oladi; rasm asosida o'z kun tartibini hodisalar ketma-ketligi asosida matn yoza oladi; *daraxt, payvand* kabi oxiri ikki undosh bilan tugovchi so'zlarini to'g'ri ifodalay oladi; *to'qqiz, ukki* kabi tarkibida ikkita bir xil undosh qatnashgan so'zlarni to'g'ri yoza oladi; tavsiya mazmunidagi gaplar tuza oladi.

Lingvistik bilim: vaqtni ifodalovchi konstruksiyalar; vaqt bilan bog'liq metaforalar; *daraxt, payvand* kabi oxiri ikki undosh bilan

tugovchi soʻzlarining aytilishi va yozilishi, buyruq-istak maylidagi feʼl haqidagi maʼlumotlarni oʻzlashtira oladi.

Lugʻat boyligi: soat vaqtlarini ifodalovchi soʻzlar; kun davomidagi faoliyatlarni ifodalovchi soʻzlar (uyqudan turish, nonushta qilish, katta tanaffus kabi); kun qismlarini ifodalovchi soʻzlar (kunbotar, tush, tong, tun); 1dan 99gacha boʻlgan raqamlar; vaqt bilan bogʻliq metaforalar (oltin, daryo).[15.54]

KUN TARTIBI

Rasmlarga qarab ogʻzaki gaplar tuzing.
Soat vaqtlarini toʻgʻri aytishga harakat qiling.

ERTALAB

uyqudan turish nonushta maktabga borish

TUSH

katta tanaffus tushlik uyga qaytish

TUN

hordiq chiqarish kechki ovqat tungi uyqu

17

2-SINF

G'aroyib ixtirolar

Nutqiy mavzuning g'oyasi: insoniyat tarixidagi eng muhim ixtirolar haqida ma'lumot berish, bu ixtirolarning insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o'rni va ahamiyatini ochib berish, bolalarda ixtirochilikka nisbatan qiziqish uyg'otish.

Tinglab tushunish: audiomatnni tinglab tushunadi va notanish so'zlar talaffuzini anglay oladi; matndagi kalit so'zlarni aniqlay oladi; tinglangan matndagi ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarni tushuna oladi; voqelikka munosabat bildira oladi; kichik guruhda ishlash jarayonida g'oyalarni ifodalab bera oladi.

Og'zaki nutq: g'aroyib ixtirolar haqida suhbatga kirisha oladi; talaffuz me'yorlariga rioya qiladi; rasm asosida berilgan savollarga asosli javoblar bera oladi; rasmdagi narsalar nomini to'g'ri ayta oladi; guruhlarga bo'linib ishlashda o'z fikrlarini erkin bildira oladi; o'qigan matni asosida fikrlab, boshqa narsalarning ixtiro qilinishi haqida gapira oladi.

O'qib tushunish: ixtiro nima ekanini izohdan o'qib tushuna oladi; besh bosiqchli topshiriq shartini o'qib tushuna oladi; matn asosida ochiq va yopiq ifodalangan ma'lumotlarga asoslangan savollarga javob bera oladi; rasmdagi narsalarning o'xshash jihatlarini topa oladi; yo'riqnoma asosida loyiha tuza oladi.

Yozma nutq: namuna asosida ixtirolarning maqsadini yoza oladi; rasmdagi narsalar nomini to'g'ri yoza oladi; rasmdagi narslarni o'xshash jihatlarini topib yoza oladi; berilgan ko'rsatma asosida xat yoza oladi.

Lingvistik bilim: narsalarning nomini bildiruvchi so'zlar; chunki bog'lovchisi; sinonim so'zlar; *bo'lishi mumkin, bo'lsa kerak* birikmalari; o'zlashma so'zlar.

Lug'at boyligi: mavzuga oid so'z va birikmalar.

Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan.[16.24]

Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning soʻz qoʻllash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.

Ona tili va oʻqish savodxonligi fanini oʻqitishda asosiy eʼtibor oʻquvchida tilga doir toʻrtta koʻnikma: oʻqib tushunish, tinglab tushunish, nutq soʻzlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Boshlangʻich taʼlimning savod oʻrgatish bosqichi yakunlangach, ona tili va oʻqish savodxonligi darslar boshlanadi hamda 4-sinf yakuniga qadar izchil davom ettiriladi.

Ona tili va oʻqish savodxonligi fanini oʻqitishda quyidagi tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiq:

1. Taʼlim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, yaʼni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, faoliyatga yoʻnaltirilgan yondashuv, ongli yondashuv, tadqiqotchilikka asoslangan yondashuv, tanqidiy fikrlashga asoslangan yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish lozim.

2. Tilni amalyotda qoʻllashga oʻrgatish, yaʼni matnni oʻqish orqali, ham grammatka, ham uning qoʻllanilishini oʻrgatishni nazarda tutadi.

3. Grammatik savodxonlik dorasida oʻquvchining soʻz boyligini oshirish, soʻzlarning maʼnosi, farq va oʻxshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, soʻzlarni bogʻlab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi maʼnoviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, oʻzgalar fikrini toʻgʻri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, toʻliq bayon qilinmagan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatni toʻgʻri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish va malakasini oʻstirishga eʼtibor qaratiladi.

4. Oʻqish savodxonligi doirasida oʻquvchida toʻgʻri, tez, ongli, ifodali oʻqish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob oʻquvchisidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga koʻtarish; oʻqish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish;

tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini egallashi nazarda tutiladi.

5. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

6. O'quvchining o'qib tushunish, tinglab tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e'tibor qaratiladi.

7. Video va audiomateriallar yozuv savodxonligini shakllantirish bilan birga og'zaki nutqni rivojlantirishga amaliy yordam beradi. Videomaterial tilning qanday vaziyatda qo'llanayotganligi haqida tasavvurni shakllantirsa, audiomaterial ularning ohangini yaxshi o'zlashtirishga, so'zlarning qanday ma'no anglatishini tushunishga yordam berishga yo'naltirilgan.

8. Badiiy matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tilning ifoda imkoniyatlarini tushunish va his eta olish, "so'zni hazm qila olish" darajalar e'tiborga olinadi.

9. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali jodiy tafakkur, fikrlash doirasi shakllantirilib boriladi.

10. Har bir mashg'ulot tilni o'zlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida tashkil etiladi. "O'qituvchi kitobi"da ona tili va o'qish savodxonligi fanidan o'qitilayotgan nutqiy mavzular dorasida qanday malaka talablari qo'yilganligi, bunda qaysi jihatlarga e'tibor berish lozimligi, mashq va topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq metodik yo'l-yo'riqlar, darsni qanday texnologiya asosida tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. Belgilangan vazifalarni o'quvchilar mashq daftariga yozishlari, chizishlari, bo'sh o'rinlarni to'ldirishlari, o'qib va tinglab tushunishi, matn tuzish bilan bog'liq topshiriqlarni bajarishlari, rasmlarni bo'yashlari mumkin.



“Google play”dan “Savodxon 2” lovasini yuklab olib. Mazkur lovada darslikning qo‘shimcha manbalar: audiomatnlar, vdeo lavhalar va ona tilini o‘zlashtirishga qaratilgan qiziqarli o‘yinlar berilgan.

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O‘QUV TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH

Ta’lim jarayonida eng ko‘p vaqt oladigan va eng ko‘p bilim beradigan narsa bu savollar hisoblanadi. Sal mubolag‘a bilan aytganda, savollarning qanday bo‘lishi o‘quvchi tafakkurining qay darajagacha rivojlanishini belgilab beradi.

AQSHda o‘qituvchilarning savol berishiga oid ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. 1980-yilda Leven va Long ismli olimlar 1912-yilda AQSH o‘qituvchilari maktab kunining 80%izini savollar berish va ularga javob kutishga sarflashganini aniqlashgan. Vilenning 1991-yilda e‘lon qilgan tadqiqoti esa o‘quvchilarga beriladigan savollarning aksariyati quyi kognitiv darajadagi (o‘quvchidan quyi tafakkur darajasini talab qiladigan) savollardan iborat bo‘lib, ular, asosan, ma’lumotni eslab qolganlik darajasini tekshirishga qaratilgan hamda yuqori kognitiv darajani qamrab olmaganligini ko‘rsatadi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etishda darslikda keltirilgan shartli belgilar bilan to‘g‘ri ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

DARSLIKDAGI BELGILAR IZOHI



O'qish belgisi darslikda berilgan matnni o'qishga ishora qiladi



Mashq daftariga yozish belgisi o'quvchi daftarida ishlanadigan mashqlar oldidan berilgan



Qoida bilan tanishish – qoidalar oldidan berilgan belgi



Partadosh bilan bajarish o'quvchi o'z partadoshi bilan birgalikda bajaradigan mashq va topshiriqlarni anglatadi.



Quvnoq musobaqa sinfda musobaqa uyushtirish nazarda tutilgan topshiriqlar oldidan berilgan.



Savollarga javob berish belgisi darsda savol-javob, bahs-munozaralar vaqti kelganidan xabar beradi.



Audiomatnni tinglash belgisi kelgan o'rinlarda o'quvchilarga shu mavzuda berilgan audiomatn eshittiriladi.



Qiziqarli mashg'ulot belgisi bilan berilgan topshiriq rasm chizish, bo'yash, yasash yoki loyiha tuzishga doir qiziqarli mashg'ulot bo'lishi mumkin



Rasmga e'tibor berish belgisi rasimli topshiriqlar oldidan beriladi.



Topshiriqni bajarish belgisi mustasno holatlarda qo'llangan topshiriqlarni nazarda tutadi

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” fanining bosh maqsadlaridan biri o‘quvchilarni hayotiy nutqiy vaziyatlarga tayyorlashdir. Masalan, “Navbatda turishni bilasizmi?” mavzusida navbatda turish madaniyati, bu vaziyatda ishlatiladigan til birliklari – murojaat shakllari yuzasidan ta’lim beriladi. Ha, bu borada jamiyatimizda muammolar borligini hech kim inkor etmasa kerak...



Rasm asosida xaridorlarning navbatda turish odobi haqida fikr bildiring.

Xush kelibsiz!

Assalomu alaykum!

Tezroq bo‘lsaydi!

Ey, meni o‘tkazib yuboring!

Navbatga qarashsa-chi?



2. Rasmdagi xaridorlarga mos keladigan so‘zlarni yozing. Bitta xaridorga bir nechta so‘z to‘g‘ri kelishi ham mumkinmi?

Namuna tartibsiz, ...



Ko‘cha-ko‘yda ishlatadigan murojaat so‘zlaringizni yozing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna opa, amaki, xola...
Amaki, keling, yordamlashaman.



101

Mavzuni hayot bolan bog'lash




Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi darslarini tashkil etishda darslikda berilgan topshiriqlardan samarali foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlashni, eruditsiyani, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berilgan. Bunday topshiriqlar bilan ishlashda o'qituvchi ta'lim jarayonini mohirona tashkil qilishi kerak.

O'qituvchilik san'ati bolalarni mulohazalar yuritish yo'li bilan xulosaga, natijaga etaklashdan iboratdir. Har safar, o'quvchilar bilan o'quv topshiriqlari bilan ishlashda taqqoslash va umumlashtirishga undash uchun qo'yilgan savollar ularning aqlini zo'riqtiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkuri ulardan o'rganganlarining muhimini ajratish so'ralganda yanada ijodiy ishlaydi. Muhim narsa o'quvchilarning o'zlari aytganlari orasidan qidiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy kamolotining asosi bo'lgan tafakkur va faoliyatdagi mustaqilligining darajasi o'quv

topshiriqlarini bajarishda ham namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv topshiriqlari bilan ishlashini zamonaviy yondoshuvlar asosida turlicha tashkil etish mumkin. Eng muhimi o'quv topshiriqlari bilan ishlashda bir xil yondoshuvga tayanib qolmaslik kerak. Bunday yondashuv o'quvchini zeriktiradi, uning yangilikni o'rganishga nisbatan bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi.



1-chizma. O'quv topshiriqlarini tashkil etish shakllari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv topshiriqlari bilan ishlash faoliyatini tashkil etishda pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik asoslarga tayanib berilgan topshiriqlar o'quvchilar shaxsiyatida ziyraklik va erkinlik tarkib topishiga ko'maklashadi. Ularda aniqlik va batartiblik, mehnatsevarlik, qat'iyatni rivojlantirishga asos bo'ladi. Faoliyatida duch kelgan qiyinchiliklarni engib o'ta olish, boshlagan ishini oxiriga etkazish hamda o'z xatti-harakatini nazorat qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quv topshiriqlar bilan ishlash yuzasidan metodik tavsiyalarimizni keltirib o'tamiz.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanidan 1- sinf darsligida "Navro'z taronasi" nomli she'r keltirilgan. Mazkur she'r bo'yicha berilgan topshiriqlar orqali o'quvchida mantiqiy tafakkurni, mustaqil fikrlashni shakllantirish mumkin.

Ko'kda quyosh gulxan yoqdi,
Soylar yana to'lib oqdi.
Chiqib xazon ko'rpasidan,
Boychechaklar kulib boqdi.
Ko'ngillarga yorug' tushdi,
Shudgorlarga urug' tushdi.
Urug'larga jon bag'ishlab,
Yomg'irlar ham qutlug' tushdi,
Navro'z, Navro'z, Navro'z!
Tabiatga zardo'z.
Bahor dala-dashtda,
Tikar go'zal kashta.

Mazkur she'r yuzasidan quyidagicha mantiqiy topshiriq berilgan.



**Rustamning boshi qotdi. U she'rdagi ayrim
gaplarga tushunmayapti. Balki, unga siz
tushuntirib berarsiz?**



Ko'kda quyosh gulxan yoqdi,
Soylar yana to'lib oqdi.



Chiqib xazon ko'rpasidan,
Boychechaklar kulib boqdi.



- ☹️ Quyosh qanday qilib gulxan yoqadi, axir uning qo'li yo'q-ku?
- ☹️ Boychechakning kulishini ko'rmagan ekanman. Boychechak ham kuladimi?
- ☹️ Bu she'rning nimasi yaxshi?

O'qituvchi topshiriq yuzasidan qo'yilayotgan muammoni juftlikda o'qituvchi rahbarligida bajarish maqsadga muvofiq. Topshiriq yuzasidan o'quvchilarning fikri tinglanadi. Barcha o'quvchilarning fikrini tinglashga imkoniyat bo'lmasada, o'quvchilarning hech bo'lmaganda o'z o'rtoqlarining fikrini eshitishlariga erishish ham muhim ahamiyatga ega.

Darslikda Baxtiyor Sheraliyev qalamiga mansub "Xotiraning dorisi" mavzusida matn keltirilgan. Mazkur matn ustida ishlash orqali o'qituvchi o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirishi, matnni idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Xotiraning dorisi

Kimyogar Bernar Kurtuaning mushugi bor edi. Bir kuni mushuk kimyogarning ish stoli ustiga sakrab chiqadi. Stolc ustida turli xil suyuqliklar solingan idishlar bor edi. Mushuk ularni to'kib yuboradi. To'kilib ketgan suyuqliklar bir- biriga qo'shib, siyohrang ko'lmakcha hosil bo'ladi. Shunday qilib, kimyogar yod moddasini kashf etadi.

Yod- odam uchun eng kerakli moddalardan biri. Yod moddasi dengiz suvlari va o'simliklarida uchraydi. Shuning uchun dengiz mahsulotlarini tez- tez yeb turish kerak.

Agar sizning tanangizda yod yetishmasa, buqoq kasalligiga chalinasiz. Xotirangiz ham kuchsizlanib qoladi. Shifokorlar yodni xotiraning dorisi ham deb atashadi.

Osh tuzining qadog'iga qarasangiz, "Yodlangan" degan yozuvni ko'rasiz. Bu yodli tuz deganidir.


Esda tuting, yodni o'zingizcha ishlatmang, chunki uning ko'pi zararli hisoblanadi.[15.45]

Ushbu matn yuzasidan berilgan topshiriqlar bilan ishlash jarayonini jodiy jarayonga aylantirish orqali. O'quvchilarda ziyraklik, topqirlik, muammoni tahlil qila olish, to'g'ri hukmni ajratish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.



1. Fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini belgilang. Gaplarni ko'chiring.

Yodning kashf etilishiga tasodif sabab bo'lgan.	To'g'ri Noto'g'ri
Dengiz mahsulotlarida yod moddasi uchramaydi.	To'g'ri Noto'g'ri
Yod xotirani kuchsiz qiladi.	To'g'ri Noto'g'ri
Shifokorlarning aytishicha, yod – xotiraning dorisi.	To'g'ri Noto'g'ri
“Yodlangan” so‘zi “yodli” so‘zi bilan bir xil ma‘noga ega.	To'g'ri Noto'g'ri
Yodlangan osh tuzida yod moddasi bo'ladi.	To'g'ri Noto'g'ri



Ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish orqali nutqiy kompetensiya (og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish) shakllantirib boriladi. 3-4-sinflarda bu kompetensiyaning mazmun- mohiyati soddadan murakkabga qarab takomillashib boradi.



**2-chizma. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi
nutqiy kompetensiyaning mazmuni.**

Og'zaki nutqqa qo'yiladigan ta'lablar:

- nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilish;
- atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qilish;
- rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlash;
- o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira olish;
- og'zaki fikr ifodalashda ma'nodosh va zid ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish;
- matnni qayta ijodiy bayon qila olish.
- berilgan mavzuda og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda tartibli va ravon so'zlay olish;
- she'rlarni ifodali aytish;
- munozara jarayonida o'zaro hurmatni saqlagan holda navbat bilan fikr bildirish, o'z qarashlarini odob bilan himoya qilish;
- rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlash;
- o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan gapira olish;
- tushunmagan o'rinlarni aniqlashtirish maqsadida savollar bera olish;
- og'zaki fikr ifodalashda maqsadga muvofiq so'z, ibora va birikmalardan o'rinli foydalanish;
- matn, hikoya, ertakni qayta ijodiy bayon qila olish.

Yozma nutqqa qo'yiladigan talablar:

- bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qilish; -

- gap ohangiga rioya qilgan holda tinish belgilari (nuqta, vergul va so‘roq)ni qo‘ya olish;

- punktuatsion va imlo qoidalariga amal qilgan holda 30–40 ta so‘zdan iborat diktant yozish;

- yil davomida o‘rganilgan fanlarga oid atamalarni farqlash va ularning ro‘yxatini tuzish, to‘g‘ri yoza olish;

- berilgan rasm asosida, odam yoki ma‘lum voqeani tasvirlab, 3–4 ta gap tuzib yoza olish;

- tabriknoma va xat yoza olish.

- gap ohangiga rioya qilgan holda tinish belgilari (nuqta, vergul, so‘roq, undov)ni qo‘ya olish;

- punktuatsion va imlo qoidalariga amal qilgan holda 50–60ta so‘zdan iborat diktant yozish;

- yil davomida o‘rganilgan fanlarga oid atamalarni farqlash va ularning ro‘yxatini tuzish, to‘g‘ri yoza olish;

- berilgan rasm asosida odam yoki ma‘lum voqeani tasvirlab 5–6ta gap tuzib yoza olish, bunda fikr tartibiga rioya qilish;

- berilgan qo‘shimchalar asosida so‘zlar hosil qilish va ularni to‘g‘ri yozish;

- shaxsiy xat va tabriknoma yoza olish, bunda so‘z va so‘z birikmalarini to‘g‘ri bog‘lay olish.

O‘qish va tushunishiga qo‘yiladigan talablar:

- matnlarni ravon va ifodali o‘qish;

- o‘quv dasturida tavsiya qilingan matnlardagi so‘z va birikmalarning ma‘nosini anglash;

- lug‘atdan foydalana olish;

- matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savollar bera olish;

- ertaklarning xulosasini ayta olish, ertak qahramonlari nutqini obrazga kirib o‘qiy olish.

- matnlarni to‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish;

- o‘quv dasturida tavsiya qilingan matnlardagi so‘z, ibora va birikmalarning mohiyatini anglash;

- matndagi soʻzlarning shakliy va mazmuniy jihatlarini sharhlay olish;

- soʻzlarga soʻroq berish orqali ularni tasniflay olish;

- qavm-qarindoshlik bilan bogʻliq soʻzlarni sharhlay olish;

- matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savollar bera olish;

- ertak, hikoya, rivoyatlarning asosiy gʻoyasini, axloqiy jihatini aniqlash. **Tinglab tushunishiga qoʻyiladigan taʼlablar:**

- suhbatni tinglab tushuna olish, zarur oʻrinlarni qayd qila olish;

- tinglangan monologik nutq va suhbatdan soʻzlovchining nutq ohangini belgilay olish;

- berilgan savolni tushunish va mantiqli javob bera olish;

- jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va gʻoyasini ayta olish;

- maqollar va hikmatli soʻzlar maʼnosini tushunish.

- tinglangan monologik nutq va suhbatdan soʻzlovchining asosiy gʻoyasini ajrata olish, zarur oʻrinlarni qayd qila olish;

- tinglangan matnda qoʻllangan zid maʼnoli, shakldosh va maʼnosi yaqin soʻzlarni sharhlay olish;

- berilgan savolni tushunish va mantiqli javob bera olish;

- hikoya, ertaklardagi qahramonlarni tasvirlay olish;

- jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va gʻoyasini ayta olish;

- iboralar, maqollar va hikmatli soʻzlar maʼnosini tushunish;

- tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlay olish.

Lingvistik kompetensiyasi

- unli va undosh harflar talaffuzi, imlosini bilish, ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;

- boʻgʻin koʻchirish va bosh harflar imlosiga rioya qilish;

- olinma soʻzlar, atamalar, ulardan ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri foydalana olish;

- soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlarini oʻzaro farqlash; soʻzlarga soʻroq berish orqali ularni turkumlarga ajratish va nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;

- soʻz va gapni oʻzaro farqlash; soʻzlarni oʻzaro biriktirgan holda gap hosil qila olish;

- gaplarning ifoda maqsadiga koʻra turlarini farqlash va imlosiga rioya qilish.

- unli va undosh harflar imlosini bilish va yozma nutqda toʻgʻri qoʻllay olish;

- boʻgʻin, uning hosil boʻlishi, yozma nutqda boʻgʻinga koʻchirish qoidalariga rioya qilish;

- olinma soʻzlar, atamalar, yangi soʻzlarning talaffuzi, imlosi va maʼnolari, ulardan ogʻzaki va yozma nutqda toʻgʻri foydalana olish;

- lugʻat va lugʻat turlari, lugʻatdan foydalanish qoidalariga rioya qilish;

- soʻz, uning tarkibiy qismi, soʻzlarni asos va qoʻshimchalarga ajrata olish, yasama soʻzlarni farqlash;

- soʻzlarga soʻroq berish orqali ularni turkumlarga ajrata olish;

- ot, sifat, son, olmosh, feʼlni oʻzaro farqlash;

- soʻzlarni oʻzaro toʻgʻri biriktirgan holda gap hosil qila olish;

- sanash ohangi bilan berilgan soʻzlar va ularning orasida vergulning qoʻllanishiga oid qoidalardan yozma nutqda toʻgʻri foydalanish;

- gap va uning qismalrini farqlash, imlosiga rioya qilish;

- soʻz, gap va matnning xususiyatlarini bilish, matn hosil qilish qoidalariga rioya qilgan holda matn yarata olish.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining kognitiv faoliyatini yoʻlga qoʻyishda, mantiqiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishda, olgan bilim, koʻnikma, malakalarini hayotda qoʻllashga oʻrgatishda oʻquvchi daftari, va tarqatma materiallardab ham samarali foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi.

O'quvchi daftari yoki tarqatma topshiriqlar

O'quvchi daftari yoki tarqatma topshiriqlar shakllantiruvchi baholashda eng qulay vosita hisoblanadi. Chunki ular:

1. Darslik asosida tuziladi va malakalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi

2. O'z navbatida darslikdan mustaqil bo'ladi, dasturda nazarda tutilgan malakalarni shakllantirish uchun qo'shimcha vosita ham bo'la oladi.

3. Tarqatma shaklidagi topshiriqlar har bir o'quvchiga moslab ishlab chiqilishi ham mumkin.

O'quvchi daftari va tarqatma topshiriqlarda turli xil savol turlaridan foydalanish mumkin.

- Qisqa javob talab qiluvchi savol
- Bo'sh o'rinlarni to'ldirish
- Muqobil javobli test
- To'g'ri/Noto'g'ri
- Moslashtirish
- Ko'p tanlovli test


Bulardan tashqari turli grafik chizmalar, xaritalar, boshqotirma shakllari, diagrammalar, jadvallarni ham qo'llash mumkin. Darslikda bunday vositalardan foydalanish amalda imkonsiz. Chunki darslik hajm jihatdan cheklangan bo'ladi.

Tarqatma topshiriqlarni tayyorlash jarayoni

O'quvchi daftarlari Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqilishi hisobga olib quyida tarqatma topshiriqlar tayyorlash uchun ba'zi maslahatlarni keltirib o'tamiz. Tarqatma topshiriqlarni tayyorlashda quyidagi ketma-ketlikka amal qilish tavsiya etiladi:

- O'quvchilar egallashi kerak bo'lgan ko'nikmalar aniqlanadi;
- Ko'nikmani egallashi uchun o'quvchi bajarishi kerak bo'lgan vazifa va topshiriqlar belgilanadi;
- Vazifa va topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar yakka, juftlikda yoki guruh bo'lib harakat qilishlari mumkin. Shulardan biri tanlanadi;

- Topshiriq va savollar ishlab chiqiladi;
- Topshiriq va savollarni ishlab chiqishda o'quvchilarning turli bilim darajasini hisobga olishning imkoniyati ko'rib chiqiladi;
- Tezroq bajarib qo'yish mumkin deb qaralsa, asosiy savol va topshiriqlarga qo'shimcha topshiriqlar ham kiritiladi.



3- chizma. Tarqatma topshiriqlarni tayyorlashda e'tiborga olish lozim bo'lgan unsurlar

yo'riqnoma

- topshiriqlarni bajarish uchun amalga oshiriladigan harakatlar ketma-ketligini tartib bilan tushuntiring;
- har bir ko'rsatmaga raqam qo'ying. Ko'rsatmaga amal qilish jarayonida uni osonroq topish va tartibni aniqlash uchun bu muhim
 - savollarni raqamlang;
 - qalin yoki kursiv shakldan foydalanib muhim o'rinlarni ajratib ko'rsating;
 - o'quvchilarga tanish bo'lgan so'zlardan foydalaning hamda gaplarning qisqaroq bo'lishiga e'tibor qarating.

a) diagramma, grafik va vizual effektlar

- sodda effektlardan foydalaning;
- diagramma, grafik va ramslarni sarlavhalang (bu o'quvchi tomonidan topshiriqni tushunishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi);
- imkon boricha rangli tasvirlardan foydalaning (ranglar soni 4-5tadan oshmasligi tavsiya etiladi).

d) sahifa tartibi

• o'qishni osonlashtirish uchun asosiy va tagsarlavhalardan foydalaning;

• har bir sarlavha va sahifani raqamlang;

• tarqatma topshiriq sahifasini ishlab chiqishdan oldin uni loyihalashtirib oling;

• zarur o'rinlarda harf hajmlarini turlicha qo'llang;

• ko'rinishning qiziqarli bo'lishiga harakat qiling.

e) tajriba

• o'zingiz uchun maxsus, topshiriqlarning javobi aks etgan tarqatma topshiriqni tayyorlang;

• butun sinfga joriy qilishdan oldin bir-ikki o'quvchida sinab ko'ring. Agar buning imkoni bo'lmasa shaxsiy tajriba va intuitsiyangizga tayaning.

Tarqatma topshiriqlar uchun savollar tuzish

Tarqatma topshiriqlar o'quv va baholash vositasi bo'lishdan tashqari, o'quvchilarning bilish, affektiv va psixomotor xususiyatlarini oydinlashtirishga ham xizmat qiladi. Shuning uchun ularda savol turlarining bir nechtasidan foydalanish maqsadga muvofiq.[14.187] Ya'ni sizning tarqatma topshirig'ingiz birgina savol turidan iborat bo'lmasligi kerak. Quyida ana shunday savol turlariga qisqa izohlar beramiz:

a) qisqa javobni talab qiladigan va bo'sh o'rinlarni to'ldirish mumkin bo'lgan savollar

Bu so'z, so'z birikmasi, jumla yoki raqam bilan javob berish mumkin bo'lgan savol turidir. Qisqa javobli savollar to'g'ridan-to'g'ri savoldan va javob berish uchun joydan iborat bo'lsa, bo'sh o'rinlarni to'ldirishni talab etuvchi savollar tugallanmagan yoki o'rtasida bo'shliq bo'lgan jumalardan tuziladi. Bunday turdagi savollarni tuzishdan oldin quyidagi savollarga o'zingiz uchun javob berib oling:

Ushbu savol turi natijani o'lchash uchun mosmi?

Savolga so'z, so'z birikmasi, kichik jumla yoki raqamlar bilan javob berish mumkinmi?

Darslikdagi topshiriqlarni bilan bir xil bo'lib qolmadimi?

Savollarga o'zingiz o'ylagan javobdan boshqa to'g'ri javob yo'qmi?

Bo'sh o'rinlar yetarlicha uzunmi?

Javoblari savolning o'zida ko'rinib qolmadimi?

Bo'sh qoldirilgan o'rinlar soni so'raladigan javobga tengmi?

Savollarning qiyinlik darajasi o'quvchilar darajasiga mosmi?

Namuna:

Qisqa javobli savol:

"Yomg'irpo'shni olmagan chatoq bo'ldi-da. Endi shalobbo bo'laman." **Tagiga chizilgan so'zni izohlang.**

Bo'sh o'rinlari to'ldiriladigan savol:

"Ko'chadan shalobbo bo'lib qaytdim, _____ soyabonim uyda qolgan ekan."

Bo'sh o'rinni kerakli bog'lovchi bilan to'ldiring.

b) To'g'ri/Noto'g'ri

O'quvchilardan savolda keltirilgan ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini belgilab berishlarini talab qiladi. Ushbu savol turidan istalgan malakani tekshirishda foydalanish mumkin. Bunday turdagi topshiriqlarni tuzishdan oldin quyidagi savollarga o'zingiz uchun javob berib oling:

Ushbu savol turi natijani o'lchash uchun mosmi?

Savolga "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deb javob berish mumkinmi?

Savol malakani tekshirishga qaratilganmi?

Savolda inkor aks etmaganmi (ayniqsa ikkilik inkor, masalan, <i>noto'g'ri bo'lmagan javob</i>)?
Savollarni tuzishda sodda va tushunarli so'zlardan foydalanildimi?
“to'g'ri” hamda “noto'g'ri” javoblarning uzunligi bir xilmi?
“to'g'ri” hamda “noto'g'ri” javoblarning soni bir-biriga yaqinmi?
Ma'lum ketma-ketlikdan qochilganmi (T,N,T,N)?
Savollarning qiyinlik darajasi o'quvchilar darajasiga mosmi?

Namuna:

Savollarda berilgan faktlar To'g'ri (T) yoki Noto'g'ri (N) ekanligini aniqlang. Kerakli harfni doiraga oling

XIX asrning 50-yillariga kelib to'qimachilik sanoatning yetakchi sohasi bo'lmay qoldi.	T / N
“Apple” kompaniyasi rahbari O'zbekistonning barcha aholisi topadigan daromaddan ham ko'proq foyda qiladi.	T / N
Paxta yetishtirib sotish dunyoviy qaralgan juda kam daromad keltiradigan soha.	T / N
Matnda “keskin yuksalish”, “iqtisodiy portlash” va “bum” so'zlari bir xil ma'noda qo'llangan.	T / N

d) moslashtirish savollari

Moslashtirish – bu parallel ustunlardan biridagi tushunchaning boshqa ustundagisi bilan mos kelishini topishga asoslanga savol turi. Odatda, ikki obyektни qiyoslash, solishtirish malakalarini aniqlashda qo'llash foydali. Bunday turdagi topshiriqlarni tuzishdan oldin quyidagi savollarga o'zingiz uchun javob berib oling:

Ushbu savol turi natijani o'lchash uchun mosmi?
Ikkala ustunda haqiqatdan bir-biriga mos keladigan tushunchalar ifodalanganmi?

Javoblar ustunidagi miqdor savollar ustunidan ko'proqmi?
Savollar ustuni va javoblar ustuni tartiblanganmi?
Ko'rsatmada nimasiga ko'ra moslashtirish kerakligi aniq aytilganmi?
Savollarning qiyinlik darajasi o'quvchilar darajasiga mosmi?

Namuna:

Quyida qo'llangan "so'ramoq" fe'lini gaplardagi ma'nosi bilan moslashtiring.

1	Akram, qo'y yetaklagan odamdan yettinchi bo'linma qayerda ekanini so'radi.	a	iltimos yoki talab qilmoq
2	- Allo, kimni so'rayapsiz? - Ahmedovni so'rayapman.	b	savol, so'roq bermoq
3	Yangi yilga yer ekinsiz qolsa, rais hech kimdan so'rab ham o'tirmasdan, qo'sh solib yuboradi.	d	kimsani chaqirmoq
4	Boy qo'shningdan so'raguncha, yo'q uyingni axtar	e	fikrlashish, maslahatini yoki ruxsatini olish
		f	bilimini tekshirmoq
		g	axtarmoq, izlamoq

1. __2. __3. __4. __

e) muqobil javobli savollar

Muqobil javobli savollar savol va uning yechimiga bir nechta muqobil javoblarning berilishi bilan boshqa savol turlaridan ajralib turadi. O'quvchidan o'zi to'g'ri deb bilgan javobni tanlash talab qilinadi. Bunday turdagi topshiriqlarni tuzishdan oldin quyidagi savollarga o'zingiz uchun javob berib oling:

Ushbu savol turi natijani o'lchash uchun mosmi?
Qo'yilgan savolda muammoga yetarli darajada e'tibor qaratilganmi?

Savollar ahamiyatsiz ma'lumotlardan iborat bo'lib qolmadimi?
Savollarda inkordan foydalanilmadimi (iloji boricha)?
Inkordan foydalanilgan bo'lsa, u alohida ajratib ko'rsatildimi?
Muqobil javoblar bir-biridan mazmunan uzoq emasmi?
Muqobil javoblarning uzunligi bir-biriga yaqinmi?
Faqatgina bitta to'g'ri javob bormi?
Chalg'ituvchi muqobil javoblar orqali yaxshi o'zlashtiruvchi va past o'zlashtiruvchi o'quvchini aniqlab olish mumkinmi?
Muqobil javoblarda to'g'ri javobni topish uchun yo'naltirilgan so'zlar yo'qmi?
"Hamma javoblar to'g'ri", "To'g'ri javob yo'q" kabi muqobil javoblardan foydalanilmadimi?
Muqobil javoblar juftlik hosil qilmaganmi?
Muqobil javoblar grammatik jihatdan o'xshashmi?
Savollarning qiyinlik darajasi o'quvchilar darajasiga mosmi?

Namuna:

Matndagi "bum" so'zi qanday ma'noni anglatmoqda?

- A. Yuqori tezlikka erishish
- B. Zudlik bilan erishish
- D. Darajaga tez ko'tarilish
- E. Yangi asrga o'tish

f) ochiq savollar

Ochiq savollarda o'quvchilar savolga o'z so'zlari bilan javob berishlari kerak bo'ladi. Bunday savollar o'quvchining aqliy/ilmiy qobiliyatlarini baholash uchun juda qulaydir. Ushbu savol turidan istalgan malakani tekshirishda foydalanish mumkin. Bunday turdagi

topshiriqlarni tuzishdan oldin quyidagi savollarga o'zingiz uchun javob berib oling:

Ushbu savol turi natijani o'lchash uchun mosmi?
Savol aniq bayon etilganmi?
O'quvchilarga baho qaysi mezonlar asosida qo'yilishi tushuntirilganmi?
Javoblarini yozish uchun o'quvchilarga yetarli vaqt berilganmi?
Javoblarni yozishlari uchun yetarli joy ajratilganmi?
Har bir savolga qo'yiladigan baho va ajratilgan vaqt haqida ma'lumot berilganmi?
Savollarning qiyinlik darajasi o'quvchilar darajasiga mosmi?
Savollar fikrlashga qaratilganmi?

Namuna:

Baholash mezonlari:

2 ball – o'zi tanlagan yondashuvni isbotlab beruvchi bir nechta dalillar keltirilgan, nega boshqa yondashuvni ikkinchi darajali deb hisoblashi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

1 ball – o'zi tanlagan yondashuvni isbotlab beruvchi bitta dalil keltirilgan, qarshi yondashuvning nega ikkinchi darajali ekani ochib berilmagan.

0 ball – o'zi tanlagan yondashuvning to'g'ri ekanini isbotlovchi dalillar keltirilmagan, qarshi yondashuvning nega ikkinchi darajali ekani ochib berilmagan.

Tarqatma topshiriqlardagi javoblarni baholash

Tarqatma topshiriqlarda berilgan savollarga javoblarni baholash quyidagi tartibda amalga oshadi:

1. Har bir savol uchun ma'lum ballar ajratiladi (ko'pi bilan 2 ball bo'lishi tavsiya etildi).

2. Har bir topshiriqda o'quvchi to'plashi mumkin bo'lgan eng yuqori ball aniqlanadi. Masalan, 2 ballik 3ta 1 ballik 1ta savol bor bo'lsa jami 7 ball.

3. Topshiriqlar jamlanmasida o'quvchi to'plashi mumkin bo'lgan eng yuqori ball aniqlanadi. Masalan, jami 4 xil topshiriq, 2 tasi 7 ballik, 2 tasi 3 ballik. Shunda jami 20 ball bo'ladi.

4. Eng yuqori baho 100% deb qaraladi va o'quvchi to'plagan ballining 100%lik natijaga nisbatan foizi aniqlanadi.

5. Foizlar oralig'iga qo'yiladigan baho aniqlanadi. Masalan,

Foiz	Baho
86-100%	"5"
71-85%	"4"
56-70%	"3"
55% va undan past	"2"

6. O'quvchining bahosi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$x = \frac{a \cdot 100}{b}$$

Bunda: a = o'quvchining to'plagan balli, b = topshiriqlar jamlanmasida o'quvchi to'plashi mumkin bo'lgan eng yuqori ball, x = o'quvchining olgan foizi. Masalan, topshiriqlar jamlanmasida o'quvchi to'plashi mumkin bo'lgan eng yuqori ball 20ga teng. O'quvchi to'plagan balla esa 15. Formulaga qo'yamiz. 15ni 100ga ko'paytirib, chiqqan sonni 20ga bo'lamiz:

$$x = \frac{15 \cdot 100}{20} = 75$$

Demak, o'quvchining olgan foizi 75ga teng. Endi bundan baholarning foizdagi qiymati orqali o'quvchining bahoasini chiqaramiz:

$$75\% = \text{"4" baho}$$

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA, MALAKA VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish asosida davlat ta'lim-tarbiya sifatini, bu sohada yuz bergan kamchiliklarga o'z vaqtida barham berish, maktab, o'qituvchi va o'quvchi ishini har tomonlama yaxshilashga kerakli tadbirlar belgilaydi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olish, o'quv metodlarining va zaif tomonlarini o'quvchilarning dars materiallarini qanday o'zlashtirayotganligini aniqlab olishga imkon beradi. Har bir o'quvchini har tomonlama yaxshi bilishga yordam qiladi. O'qituvchi o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini tekshirish asosida o'quvchilarning o'quv dasturi hajmida bilim, ko'nikma, malakalarini puxta o'rganib olishlarini ta'min etish uchun dars materiali ustida yana qanday ishlash kerakligini ko'rsatadi, darsdan ulgurmayotgan o'quvchilarni o'z vaqtida tezda tegishli choralar ko'radi. Shu bilan birga tekshirish o'qituvchining ham o'quvchining ham o'ziga talabchanligini kuchaytiradi. Har bir o'quvchining o'qishda o'zining yutuq va kamchiliklarini, o'quv materialining qaysi qismi puxta, qaysi qismini bo'sh o'zlashtirganligini aniqlashga yordam beradi. O'z-o'zini tekshirib borishga o'zi o'zini tanqid qilishga odatlantiradi, intizomlikka va qunt bilan o'qishga o'qishga o'rgatadi, ularda kuchli iroda hamda ijobiy xarakter vujudga keltiradi va tarbiyalaydi.[14.156] Maktab, ota-onalarni esa davlat oldida o'z mas'uliyati va vijdon burchini tushuntirishga o'rgatadi.

O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olish va tekshirish ota-onalarning o'z bolalari qanday o'qiyotganliklarini, darsdan ulgurish ulgurmasliklaridan xabardor bo'lib turishlariga yordam beradi. Ularning o'z bolalarining o'qishlari va tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi. Masalan, ayrim ota-onalar bolalarining o'qishlaridan xabardor bo'ladilar. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va

malakalarini hisobga olish va tekshirish ishi avvalo o'quvchilarni kunsayin o'rganib borish va ularning darsdan ulgurishlarini tekshirishni o'z ichiga oladi. O'qituvchi o'qitish jarayonida har bir o'quvchini diqqat bilan o'rganib borishi lozim.

Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan.

Milliy o'quv dasturi asosida baholash ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini namoyish qilish imkonini beradi. Dastur bo'yicha farmativ va summativ baholashning chegaralari aniqlab berilgan.

Shakllantiruvchi (formativ) baholash (o'rganish uchun baholash):

Uyga berilgan vazifalar;

Dars paytida beriladigan topshiriqlar;

Savol-javob;

Dars paytida o'tkaziladigan nazorat ishlari;

O'quvchilarning darsdagi faolligini kuzatish.

Samarali qo'llanilganda, formativ baholash o'quvchilarning bilim olish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi va o'quvchilarga:

- ularning rivojlanishini nazorat qilish;

- o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash;

- rivojlanish bo'yicha harakatlar rejalarini tuzish imkoniyatini beradi.

Shakllantiruvchi baholash norasmiy, o'qitish jarayoniga o'zgartirish kiritish imkonini beradi, qayta aloqa mavjud. Xulosalovchi (summativ) baholash – ta'lim dasturi yoki uning bir qismi so'ngida erishilgan natijani rasmiy baholash.

Xulosalovchi baholash

Ta'lim jarayonining ma'lum bir muhim bosqichida (masalan, modul yoki fan oxiri, semestr yoki chorak, o'quv yili oxiri, ta'limning bir bosqichi nihoyasi yoki ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdan

oldin) ta'lim oluvchining ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini o'lchash jarayoni.

Baho berish

Baholash natijasida chiqariladigan xulosalar o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim yo'nalishi, ta'lim muassasasi, ta'lim dasturi yoki butun boshli bir ta'lim tizimining faoliyatiga baho berish uchun ishlatiladi. Bunda olinadigan ma'lumotlar kim tomonidan ishlatilishiga qarab ikki xil baho berishni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) ta'lim oluvchiga baho berish: bunday baho berish, odatda, bevosita ta'lim berayotgan o'qituvchi yoki ta'lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi va ta'lim oluvchining o'quv dasturi yoki uning ma'lum bir qismini qay darajada o'zlashtirgani haqida ma'lumot beradi. Ta'lim oluvchini ta'limning keyingi bosqichiga o'tkazish yoki o'tkazmaslik haqida qaror qabul qilish maqsadida; ta'lim oluvchiga ta'lim muassasasini bitirganligi to'g'risida hujjat berish yoki bermaslik haqida qabul qilish uchun qo'llanadi.

b) ta'lim beruvchiga baho berish: bunday baho berish ichki(o'qituvchiga baho berish uchun) va tashqi(ta'lim muassasasiga baho berish uchun) nazoratchilar tomonidan o'tkaziladi. Bunda ta'lim oluvchilarning barchasini qamrab olish talab etilmaydi, istalgan qism ajratib olinib ularning natijasi asosida ta'lim beruvchi (o'qituvchi yoki ta'lim muassasasi) qay darajada samarali ishlayotgani haqida xulosa chiqariladi.

Tanlash(ta'lim oluvchilarni)

Baholash natijasida chiqariladigan xulosalar test topshiruvchilarni tanlash yoki saralash uchun ishlatiladi. Bu tanlash ikki xil bo'lishi mumkin:

a) belgilangan talabga javob beradiganlarni tanlash: bunda minimal talablar o'rnatiladi va baholashning maqsadi shu talablarga mos keladiganlarni ajratib olish bo'ladi. Belgilangan minimal talablarga javob beradiganlarning barchasiga qandaydir hujjat (sertifikat, litsenziya, guvohnoma, diplom, ruxsatnoma) yoki huquq beriladi.

b) cheklangan kvota sharoitida tanlash: bunday holat bir o'ringa bir necha talabgar da'vo qilayotganda yuzaga keladi. Bunda test topshiruvchilarni o'zaro solishtirish asosida qaror qabul qilinadi, ya'ni test topshiruvchilarning eng yuqori natija ko'rsatganlari tanlab olinadi.

Shakllantiruvchi baholash

O'quv jarayoni davomida o'quvchilarning o'zlashtirish sifatini baholab borish. Shakllantiruvchi baholash o'quvchining o'quv dasturida berilgan materiallarni o'zlashtirish darajasini aniqlash hamda o'quvchi kutilgan natijaga erishishi uchun tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo'ladi. Shakllantiruvchi baholash o'qituvchiga o'quv jarayonidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va keyingi rejalarni shu asosda tuzish imkonini yaratadi. Ushbu baholash turi o'quv dasturi, o'qituvchi hamda o'quvchining o'zaro aloqasini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shakllantiruvchi baholashning asosiy maqsadlari:

– muntazam ravishda sinfda o'quvchini baholab borish orqali u qaysi bilim, ko'nikma, malaka yoki kompetensiyalarni yaxshi o'zlashtiryotgani yoki o'zlashtirmayotgani, nimalar ustida ishlashi kerakligi haqida ma'lumot beriladi;

– biror bir mavzu oxirida nazorat ishi olish orqali o'qituvchi o'quvchilari shu mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklari, qanday xatolarga yo'l qo'yayotganlari haqida ma'lumot olishi va lozim bo'lsa, o'tilgan mavzuga yana qaytishi mumkin;

– o'qituvchi o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash maqsadida test o'tkazishi va olingan ma'lumotlar asosida keyingi qadamlarni rejalashtirishi yoki o'quvchilarni guruhlariga ajratishi mumkin.

Shakllantiruvchi baholash xulosalovchi baholashdan farqliravishda bevosita o'qituvchi tomonidan, asosan, norasmiy shakllarda(kuzatish, og'zaki savol-javob qilish, kichik hajmli testlar olish, yozma ishlar va h.k.) o'tkaziladi.

Shakllantiruvchi baholash jarayonidan olingan xulosalar asosida o'qituvchi yoki ta'lim muassasasi ta'lim jarayoniga zarur deb hisoblangan o'zgartirishlarni kiritadi.

Shakllantiruvchi baholashtan keyin o'quvchilarga har doim tahliliy fikr-mulohazalar beriladi.

Shakllantiruvchi baholash, asosan, kuzatish va natijalarni qayd etib borishga asoslanadi, ya'ni ushbu baholashda jurnalga baho qo'yish talab etilmaydi.

Shakllantiruvchi baholash – bu o'qituvchilarni ham, o'quvchilarni ham o'quv jarayonining keyingi bosqichlariga yo'naltirishga mo'ljallangan baholash. Xulosalovchi baholashtan farqli o'laroq shakllantiruvchi baholash aniq xulosa chiqarish xususiyatiga ega emas. Xulosalovchi baholash deganda yakuniy imtihonlar, bitiruv yoki qabul imtihonlari, standartlashtirilgan testlarni tushunamiz. Aslida har qanday baholash shaklini shakllantiruvchi sifatida qabul qilish mumkin. Lekin yuqorida sanab o'tganlarimiz o'qituvchilar yoki biror yuqori tashkilotga o'quvchilarni saralash, ajratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shakllantiruvchi hamda xulosalovchi baholashning o'zaro farqi ularning natijasidan qanday foydalanishdagina aniq ko'zga tashlanadi.

Yana bir farq o'quvchilarning shakllantiruvchi baholashga munosabatida ko'rinadi – o'quvchilar ushbu jarayonda olingan baholarni “hisobga olinmaydigan” baho deb hisoblaydilar. [14.200] Aynan mana shu sabab o'quvchilar unga kamroq hayajon, bezovtalik va raqobat kuchi bilan yondashadilar. Buning yomon tomoni ham bor – o'quvchilar “hisoblanmaydi-ku” degan o'y bilan shakllantiruvchi baholashga umuman e'tiborsiz qarashlari ham mumkin. Ta'lim tizimimizga singib ketgan bir qarash mavjud – o'quvchilar baho kundalikka yoki baholar jurnaliga qo'yilsagina unga nisbatan jiddiy yondashishadi. Bu bizni baholash jarayonimizni o'zgartirishdagi eng tashvishga soladigan holatdir.

Shakllantiruvchi baholash kuzatish vositasi, xulosalovchi baholash esa aniq baho bilan tugaydigan jarayondir. Bu ikki baholashning farqini tushunish uchun biz umumta'lim maktablaridagi baholashga bo'lgan munosabatimizni o'zgartirishimiz lozim. Testga yoki baholashga klassik yondashuv shundayki, baho o'quv jarayonini yakunlash (o'quv jarayoni deyilganda biror bilim, ko'nikma, malakani o'rganish jarayoni nazarda tutilmoqda) vositasi deb qaraymiz. Bu mantiqni biroz o'zgaritirish vaqti yetdi, chunki o'rganish yakunlab bo'lmas jarayon hisoblanadi. 1-jadvalda shakllantiruvchi hamda xulosalovchi baholashning farqlarini yanada yaqqol ko'rish mumkin.

1-jadval. Shakllantiruvchi va xulosalovchi baholashning farqlari

Shakllantiruvchi baholash	Xulosalovchi baholash
Baholash jarayonidagi savollar o'quvchilarda avvaldan mavjud bo'ladi	O'quvchilar savollarni baholash jarayoni davomida oladilar
Ajratilgan vaqt moslashuvchan	O'quvchi ajratilgan vaqt mobaynida bajarishi lozim
O'qituvchi izoh-mulohaza bildirish, harf yoki raqam ko'rinishidagi bahoni qo'yish bilan xulosalaydi	O'qituvchi harf yoki raqam ko'rinishidagi aniq bir baho bilan xulosalaydi
Baho o'quv jarayonini qanday tashkil qilishni (davom ettirishni) aniqlash uchun xizmat qiladi	Baho o'quvchilarni ajratish yoki saralash uchun xizmat qiladi
Yaqinda yoki hozirgina o'tilgan mavzu/bilim va ko'nikma yuzasidan o'tkaziladi	O'quvchi shu paytgacha o'zlashtirishi lozim bo'lgan barcha bilim va ko'nikmalarni qamrab oladi
Test yoki topshiriq moslashuvchan bo'la oladi	Test yoki topshiriq ma'lum qolipdan tashqariga chiqmaydi

O'quvchi o'zini o'zi baholashi mumkin	Imtihon o'qituvchi yoki biror tashkilot tomonidan o'tkaziladi
Kelgusi ta'lim uchun erishiladigan maqsadlarni belgilaydi, kuzatib borish imkonini beradi	Kuzatib borish imkoni mavjud emas, "o'tgan narsa o'tib bo'ldi" yondashuvi amal qiladi
Natijalar kundalik, rasmiy baholar jurnali yoki tabellarda aks etmaydi	Natijalar hisobot ruhida barcha rasmiy joylarda ko'rsatiladi

O'rganish davomli hamda yig'ilib boradigan bo'lishi kerak. Ya'ni butun yil davomida ma'lum malakaning qismlari o'rganilib yakunda u ko'nikma yoki malaka darajasiga yetib boradi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanining boshqa fanlardan farqi shundaki bu fan doirasida o'quvchilar turli janrdagi matnlar bilan tanishadilar, xususan, badiiy matnlar bilan ham. Matn o'qildi, dars tugadi shu bilan bu matn o'rganilgan deb hisoblanib keyingi darsda boshqa matnga o'tib ketilaveradi. Aslida bunday bo'lmasligi kerak. O'qish deganda biror matnning syujetlarini eslab qolish, unda qanday voqealar sodir bo'lgani, kim qanday kiyimda yoki qanday yoshda ekanini bilib olish tushunilmaydi. Aytaylik, 2-sinflar uchun tayyorlangan Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida "Sharikning tug'ilgan kuni" matni mavjud. Xo'sh, ushbu matnni o'qishdan maqsad nima edi? Shunchaki qanday voqealar bo'lganini bilib olish edimi? Yo'q, bunday emas, agar shunday bo'lganda matn orqali o'rganish, o'zlashtirish mumkin bo'lgan, natijada esa boshqa shu turdagi asarlarni o'qib tushunishga yordam beruvchi ko'plab jihatlar "qolib ketar"di. Matn ustida amalga oshiriladigan har qanday harakat yaxshiroq o'qirman bo'lishga, tilning turli jilolanishlarini, ma'no nozikliklarini yaxshiroq his qila olish imkonini oshirib boraveradi. "Sharikning tug'ilgan kuni" matni ostidagi savollarga noto'g'ri javob bergan o'quvchilar bizga qanday xulosalar chiqarish uchun turtki bo'lishadi? Biz qanday qilib o'sha xulosalarni keyingi jarayonlarda samarali qo'llashimiz mumkin?

Yechim juda sodda va oddiy bo'lishi kerak, axir biz o'quvchilar bilan birga harakatlanamiz. Biz uchun hamma o'quvchilar imkon qadar teng darajada "yur"ishlari lozim. Lekin biz bularning barchasidan avval "Sharikning tug'ilgan kuni" matni orqali syujet ketma-ketligi, asar qahramonlarining ismi va qanday harakatlar qilganini bilib olishdan tashqari yana qanday ko'nikmalarni rivojlantirishimiz mumkinligini aniqlab olishimiz zarur. Men quyidagilarni sanab o'tishim mumkin:

1. Matndagi ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qilish orqali ma'lum xulosalar chiqarish.
2. Matndagi voqea-hodisalarning sabab-oqibatini tushuna olish.
3. O'quvchining leksikoni uchun notanish bo'lgan so'z va birikmalarning ma'nosini kontekst asosida taxmin qila olish.
4. Matndagi ayrim grammatik ko'rsatkichlarning qanday ma'no tashiyotganini tushunish.
5. Matn hamda tasvirlarni o'zaro moslashtira olish.
6. Matndagi voqea-hodisalarni o'z hayotiy tajribasi bilan qiyoslash.
7. Matndagi voqea-hodisalarni tanqidiy ko'rib chiqish va baholash.

Bular ikkinchi sinf o'quvchilari uchun qiyinlik qiladi deb o'yladingizmi? To'g'ri o'yladingiz, lekin bu yerda boshqa bir masala ham bor, bu ko'nikmalarni qanday tekshirish, qanday savollar bilan murojaat qilish. Savollarni bola yoshiga mos tarzda bera olsak maqsadga erishishimiz mumkin. Bu o'quvchilar uchun qiyinlik qilmasdan, aksincha, qiziqarli bo'ladi.

Shunday qilib kerakli ko'nikmalarni ajratib oldik. Xo'sh ularni qaysi mezonlar asosida baholaymiz. Oldindan shuni aytishimiz kerakki, biz sizga qanchalik mukammal mezonlarni bermaylik baribir biz sizning o'quvchilaringiz birga emasmiz. Bu mezonlarning aniq bo'lishiga ta'sir o'tkazadi albatta. Keling mezonlar haqida gaplashishdan avval yuqoridagi 7 ko'nikmani qaysi savollar bilan tekshirish mumkinligi haqida so'zlasak. 2-jadvalga e'tibor

qaratsangiz ikkinchi ustunda beriladigan savollarni bimalol shakllantiruvchi baholash deb qarashimiz mumkin:

2-jadval. “Sharikning tug‘ilgan kuni” matni asosida shakllantiruvchi baholashni amalga oshirish uchun namunalar

Rivojlantiriladigan ko‘nikma	Shakllantiruvchi baholash namunasi
Matndagi ma‘lumotlarni o‘zaro integratsiya qilish orqali ma‘lum xulosalar chiqarish.	Sharik: “Mening tug‘ilgan kunim qachon?” – deb so‘raganida yilnig qaysi fasli edi?
Matndagi voqea-hodisalarning sabab-oqibatini tushuna olish.	Matroskin Sharikka: “30-sentyabrni tug‘ilgan kun qilaver”, deb aytdi. U nima uchun bu kunni taklif qildi?
O‘quvchining leksikoni uchun notanish bo‘lgan so‘z va birikmalarning ma‘nosini kontekst asosida taxmin qila olish.	Bo‘yinbog‘ nima?
Matndagi ayrim grammatik ko‘rsatkichlarning qanday ma‘no tashiyotganini tushunish.	Neftchilar kuni, Quruvchilar kunida kimlar bayram qiladi deb o‘ylaysiz?
Matn hamda tasvirlarni o‘zaro moslashtira olish.	Rasmlarga qarab Matroskin hamda Fyodr amaki Sharikka nima sovg‘a qilmoqchi bo‘lishgani haqida gapirib bering.
Matndagi voqea-hodisalarni o‘z hayotiy tajribasi bilan qiyoslash.	Neftchilar kuni, Quruvchilar kunida kimlar bayram qiladi deb o‘ylaysiz? Siz shunga o‘xshash boshqa bayramlarni bilasizmi?
Matndagi voqea-hodisalarni tanqidiy ko‘rib chiqish va baholash.	Sizningcha, berilgan sovg‘alardan qaysi biri Sharik uchun ko‘proq foydali edi.

Shakllantiruvchi baholashning g'oyalari

- o'quvchilarga shakllantiruvchi baholash ularning ta'lim olishiga qanday hissa qo'shishini tushuntirish;
- o'quvchilarni o'zaro teskari aloqaga kirishishlarini ta'minlash;
- har xil tayyorgarlikka ega o'quvchilarni shakllantiruvchi baholash jarayonida tengligini ta'minlash;
- hukm chiqarish emas, o'quvchilarni rivojlantirishga e'tibor qaratish.

Shakllantiruvchi baholash quyidagi 3 muhim savolga javob beradi:

- 1. Qayoqqa ketyapman?**
- 2. Qanday ketyapman?**
- 3. Keyingi maqsadim nima?**

Fikr-mulohaza

Yuqorida aytilganidek shakllantiruvchi baholash bu shunchaki o'quvchini tekshirish emas, balki unga fikr-mulohaza bildirish hamdir. Ya'ni o'quvchining aniqlangan kamchiliklarini qanday tuzatishi kerakligi haqida o'qituvchidan oladigan fikr-mulohazasi ham shakllantiruvchi baholashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Fikr-mulohaza bildirishning yana bir muhim jihati o'quvchilarning motivatsiya olishidir. Shuni hisobga olgan holda, fikr-mulohaza bildirish, asosan, ruhlantirish kayfiyatida bo'lishi tavsiya etiladi. Ammo ruhlantirish va maqtov haddan oshib ketsa, o'quvchida ichki motivatsiya tushib ketishi, o'quv jarayonining maqsadidan chetlashishi, o'zining asl holatidan xabarsiz qolishi holatlari kuzatilishi mumkin va bu akademik jarayonga salbiy ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun ham fikr-mulohazani qay tarzda bildirish juda muhim. Agar o'quvchi:

- fikr-mulohazalarni adolatsiz deb hisoblasa;
- fikr-mulohazalar yetarli darajada aniq va tushunarli bo'lmasa;
- fikr-mulohazani o'quv jarayoni, vazifa yoki topshiriq bilan bog'liq emas deb hisoblasa;

- fikr-mulohazalarni o'z vaqtida olmasa;
- fikr-mulohaza haddan tashqari tanqidiy ruhda bo'lsa o'qishga bo'lgan qizishni yo'qotadi.

Fikr-mulohazalarning samarali va samarasiz ko'rinishlari mavjuda bo'lib, ular quyidagicha aks etadi:

Samarali	Samarasiz
O'quvchining rivojlanishiga qaratilgan	Noaniqliklar mavjud
Kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligini o'z ichiga olgan	O'ta umumiy
Yozma, og'zaki yoki vizual shaklda ifodalangan	O'quvchining shaxsiy xususiyatlariga asoslangan
Ijobiylik ruhida ifodalangan	Mukofot, rag'bat sifatida ishlatilgan
Tez-tez va o'z vaqtida (kamchilik aniqlangan zahoti) berilgan	
Xoslangan aniq shaklda (mavhum bo'lmagan) ifodalangan	
Hukm chiqarilmagan, faqat, mavjud vaziyat tavsiflangan	
O'quvchining shaxsiy xususiyatlariga emas, faoliyatiga qaratilgan	

Quyidagi misollarda o'qituvchining samarali va samarasiz fikr-mulohazasiga namuna keltirilgan:

Samarali fikr-mulohaza	Nimasi bilan samarali?
Bosh harflarning qo'llanishi bilan bog'liq jami 4ta xato bor. Kitobning 28-betini oching va bosh harflar imlosiga oid qoidalarni takrorlab oling.	Kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerakligini o'z ichiga olgan.
Sizning nutqingiz juda tez edi, shuning uchun har bir so'zni sekin va ravon talaffuz qilib, har bir jumla orasida pauza qiling.	Xoslangan aniq shaklda (mavhum bo'lmagan) ifodalangan
Maftuna, siz tuzgan matningizda sifatdoshlardan juda yaxshi foydalangansiz, keyingi safar KFSQLarni qo'llashda e'tiborli bo'ling.	O'quvchining rivojlanishiga qaratilgan
Muhammad, muammoga yondashuvingiz to'g'ri, bu muammoni hal qilishda 3ta to'g'ri qadamni amalga oshirgansiz.	O'quvchining xatti-harakatlari kutilgan natija bilan qiyoslab berilgan

Samarasiz fikr-mulohaza	Nimasi bilan samarasiz?
Sinfdagi boshqa o'quvchilarga nisbatan yaxshi bajargansiz.	O'ta umumiy. O'quvchi aynan nimasiga ko'ra yaxshi bajarganini, aynan qaysi nuqtalar yaxshi deya baholanayotganini, keyingi harakatlari qanday bo'lishi kerakligini anglolmaydi
Qoniqarsiz yoki yaxshi bajarilmagan.	Noaniq. O'quvchi xatolari nimada ekanini, ularni bartaraf

	etishi uchun nimalar qilishi kerakligini anglolmaydi.
Juda yaxshi javob berdingiz, qoyil!	Noaniq. O'quvchi qaysi harakati to'g'riligi va uni davom ettirish o'rinli ekanini aniq bilmaydi.
Siz juda yaxshi o'quvchisiz, sizdan nihoyatda manmunman!	O'ta umumiy. O'quvchining qaysi xatti-harakatiga bunday xulosa berilayotgani ochiq aytilmagan.
Siz juda yaxshi gapirdingiz.	O'ta umumiy. O'quvchining javobi qanday xususiyatlarga ega ekanligi aytib o'tilmagan.

Shakllantiruvchi baholashda qo'llaniladigan usullar va vositalar

Dastlabki yillarda o'qituvchilarning pedagogik ta'lim olishlari jarayonida baholash yoki pedagogik o'lchovlar ilmi yuzasidan yetarli nazariy bilimlarni olmaganini sababli Ona tili va o'qish savodxonligi fanlarida shakllantiruvchi baholashning asosiy vositasi darslik hamda o'quvchi dafatari bo'lishi nazarda tutilgan. Keyingi yillarda o'qituvchilarning malakasini oshirishda baholash hamda pedagogik o'lchovlar ilmiga alohida urg'u berish nazarda tutilganini hisobga olib quyida tarqatma topshiriqlar tayyorlash bo'yicha ba'zi tavsiyalarni ham keltirib o'tmoqchimiz.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanida shakllantiruvchi baholashni samarali tashkil etish yuzasidan metodik tavsiyalarni keltiramiz.

2-BO‘LIM. 1-MAVZU. TUG‘ILGAN KUNING BILAN!



Rasmlarga qarab savollarga javob bering.



- ① Rasmlarda nimalar tasvirlangan?
- ② Tug‘ilgan kun qanday kun?
- ③ Bu kunda nimalar sovg‘a qilishadi?
- ④ Sizning tug‘ilgan kuningiz qachon?
- ⑤ Sizga nima sovg‘a qilishlarini istaysiz?

Maqsad rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlash ko‘nikmasini baholash.

Shakl ushbu ko‘nikma og‘zaki savol-javob shaklida tekshiriladi. Imkon qadar ko‘proq o‘quvchilarga savol bilan murojaat qilish tavsiya etiladi.

Mezonlar

Mezon		Baho
-	rasmlarda nimalar tasvirlanganini to‘g‘ri ayta oladi	5
-	so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qiladi	
-	fikrini noto‘liq va qisman xato shakllangan gaplar orqali ifodlaydi	
-	rasmlarda nimalar tasvirlanganini to‘g‘ri ayta oladi	4

- noto'g'ri talaffuz qiladi	ba'zi so'zlarni	
- va qisman xato shakllangan gaplar orqali ifodalaydi	fikrini noto'liq	
- nimalar tasvirlanganini noto'g'ri aytadi	rasmlarda	3
- noto'g'ri talaffuz qiladi	ba'zi so'zlarni	
- va qisman xato shakllangan gaplar bilan ifodalaydi	fikrini noto'liq	
- bog'lay olmaydi	fikrini o'zaro	
- nimalar tasvirlanganini noto'g'ri aytadi	rasmlarda	2
- noto'g'ri talaffuz qiladi	ba'zi so'zlarni	
- va qisman xato shakllangan gaplar orqali ifodalaydi	fikrini noto'liq	
- fikrini aynan takrorlaydi	boshqalarning	

O'quvchiga kerakli izoh-mulohazalar beriladi.

MATN

SHARIKNING TUG'ILGAN KUNI (1-qism)

Maqsad

alohida yoki matn tarkibida kelgan sinf darajasiga mos so'zlar hamda birikmalarni (tanish, notanish) to'g'ri o'qiy olishini baholash;
sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarni ravon hamda ifodali o'qiy olishini baholash;

Shakl


Ushbu ko'nikma matnni og'zaki o'qitib ko'rish orqali baholanadi

Mezonlar

Mezon	Baho
<ul style="list-style-type: none"> - matnni biroz to'xtab, uzoq bo'lmagan tutilishlar bilan o'qiydi - so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladi - ba'zan urg'uni noto'g'ri qo'llaydi - sherigi kelgan joydan davom ettira oladi - obrazga kirisha oladi 	5
<ul style="list-style-type: none"> - matnni tez-tez to'xtab, uzoq tutilishlar bilan o'qiydi - so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladi - urg'uni noto'g'ri qo'llaydi - sherigi kelgan joydan davom ettira oladi - obrazga kirisha olmaydi 	4
<ul style="list-style-type: none"> - matndagi so'zlarni avval ichida o'qib olib keyin ovoz chiqarib o'qiydi - ba'zi so'zlarni noto'g'ri tallafuz qiladi - urg'uni noto'g'ri qo'llaydi - sherigi kelgan joydan davom ettira olmaydi 	3
<ul style="list-style-type: none"> - matndagi so'zlarni bo'g'inlab o'qiydi 	2

-	so'zlarni	
bo'g'inlarga xato ajratadi (bo'l-a-di kabi)		
-	urg'u hamda	
to'xtamga umuman amal qilmaydi		
-	sherigi kelgan	
joydan davom ettira olmaydi		

O'qituvchi kerakli izoh-mulohazalarni beradi.



- ① Sharik: "Mening tug'ilgan kunim qachon?" – deb so'raganida yilning qaysi fasli edi?
- ② Neftchilar kuni, Quruvchilar kunida kimlar bayram qiladi deb o'ylaysiz? Siz shunga o'xshash boshqa bayramni bilasizmi?
- ③ Matroskin Sharikka: "30-sentyabrni tug'ilgan kun qilaver", deb aytdi. U nima uchun bu kunni taklif qildi?
- ④ "Ov mavsumi" nima?
- ⑤ Fyodor amaki kim?

Maqsad:

- sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarda ochiq ifodalangan ma'lumotlar (qahramonlar, faktlar, detallar)dan savol berilganda javob beradi hamda javobini asoslab bera olishini baholash;

- matndagi ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qilish orqali ma'lum xulosalar chiqara olishini baholash;

- matndagi ayrim grammatik ko'rsatkichlarning qanday ma'no tashiyotganini tushunishini baholash

- matndagi voqea-hodisalarning sabab-oqibatini tushuna olishini baholash

Shakl

Ushbu ko'nikmalar og'zaki savol-javob orqali baholanadi. Har bir ko'nikmani tekshirish uchun baholash mezonlari alohida ishlab chiqilgan.

Mezonlar

Ko'nikma	Mezon	Baho
sinf darajasiga mos badiiy hamda informativ matnlarda ochiq ifodalangan ma'lumotlar (qahramonlar, faktlar, detallar)dan savol berilganda javob beradi hamda javobini asoslab bera olishini baholash	<ul style="list-style-type: none"> - ochiq ifodalangan ma'lumotdan savol berilganda to'g'ri javob bera oladi - javobini matnga tayangan holda qisman asoslab bera oladi 	5
	<ul style="list-style-type: none"> - ochiq ifodalangan ma'lumotdan savol berilganda to'g'ri javob bera oladi - javobini matnga tayangan holda asoslab bera olmaydi 	4
	<ul style="list-style-type: none"> - ochiq ifodalangan ma'lumotdan savol berilganda qisman to'g'ri javob bera oladi 	3
	<ul style="list-style-type: none"> - ochiq ifodalangan ma'lumotdan savol berilganda noto'g'ri javob beradi 	2
matndagi ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qilish orqali ma'lum xulosalar chiqara olishini baholash	<ul style="list-style-type: none"> - alohida gaplardagi mazmuni tushuna oladi - alohida gaplardagi mazmuni birlashtirib umumiy xulosa chiqara oladi - xulosalarni birlashtirgan holda savolga qisman to'g'ri javob bera oladi 	5
	<ul style="list-style-type: none"> - alohida gaplardagi mazmuni tushuna oladi - alohida gaplardagi mazmuni birlashtirib umumiy xulosa chiqara oladi - xulosalarni birlashtira oladi lekin savolga noto'g'ri javob beradi 	4

	<ul style="list-style-type: none"> - alohida gaplardagi mazmunni tushuna oladi - alohida gaplardagi mazmunni birlashtirib umumiy xulosa chiqara oladi - savolga noto'g'ri javob beradi 	3
	<ul style="list-style-type: none"> - alohida gaplardagi mazmunni tushuna oladi - alohida gaplardagi mazmunni birlashtirib umumiy xulosa chiqara olmaydi - savolga noto'g'ri javob beradi 	2
matndagi ayrim grammatik ko'rsatkichlarning qanday ma'no tashiyotganini tushunishini baholash	<ul style="list-style-type: none"> - grammatik qo'shimchanning ma'nosini to'g'ri tushunib (taxmin qilib) savolga to'g'ri javob bera oladi (qo'shimchanning nomini bilishi umuman ahamiyatga ega emas) - shu qo'shimchani boshqa so'zlarga ham qo'sha oladi (mazmun 100% to'g'ri bo'lishi shart emas) 	5
	<ul style="list-style-type: none"> - grammatik qo'shimchanning ma'nosini to'g'ri tushunib (taxmin qilib) savolga to'g'ri javob bera oladi - shu qo'shimchanning boshqa so'zga qo'shilgan holatini ham tushuna oladi 	4
	<ul style="list-style-type: none"> - grammatik qo'shimchanning ma'nosini tushunmaydi (taxmin qila olmaydi) savolga qisman bo'lsa ham to'g'ri javob beradi 	3
matndagi voqea-hodisalarning sabab-	<ul style="list-style-type: none"> - voqeaning nima sababdan sodir bo'lgani matnda yaqqol mavjud bo'lganda tushuntirib bera oladi 	5

oqibatini tushuna olishini baholash	- fikrini matnga tayangan holsa asoslay oladi	
	- voqeaning nima sababdan sodir bo'lgani matnda yaqqol mavjud bo'lganda aytib bera oladi	4
	- fikrini matnga tayangan holsa asoslab bera olmaydi	
	- voqeaning nima sababdan sodir bo'lgani matnda yaqqol mavjud bo'lganda aytib bera olmaydi	3

O'qituvchi kerakli izoh-mulohazalarni beradi.



“Sharikning tug‘ilgan kuni” hikoyasining 2-qismini eshiting.



Rasmlarga qarab Matroskin va Fyodor amaki Sharikka nima sovg‘a qilmoqchi bo‘lishgani haqida gapirib bering.



Maqsad

matn hamda tasvirlarni o‘zaro moslashtira olishini baholash;
sinf darajasiga mos badiiy yoki informativ matnni tinglagach uning asosiy mazmunini aytib bera olishini baholash;

Shakl

Ushbu ko‘nikmalar rasmlil topshiriq hamda og‘zaki savol javobning uyg‘unlashmasi orqali baholanadi.

Mezonlar

Ko‘nikma	Mezon	Baho
matn hamda tasvirlarni o‘zaro	- rasmda nima tasvirlanganini topa oladi	5

moslashtira olishini baholash	- rasmni matn bilan bog'lay oladi	
	- rasmda nima tasvirlanganini topa oladi - rasmni matn bilan bog'lay olmaydi	4
	-	3
	-	2
sinf darajasiga mos badiiy yoki informativ matnning tinglagach uning asosiy mazmunini aytib bera olishini baholash	- matnda nima haqida ekanini ayta oladi - voqealar ketma-ketligini ba'zi chalkashliklar bilan bo'lsada aytib bera oladi	5
	- matnda nima haqida ekanini ayta oladi - matndagi voqealarni aytib bera oladi lekin tartibga deyarli amal qilmaydi	4
	- matn nima haqida ekanini aytib bera olmaydi - matndagi voqealarni aytib bera oladi lekin tartibga deyarli amal qilmaydi	3
	-	2

O'qituvchi kerakli izoh-mulohazalarni beradi.

DIKTANT

Nazoratga qaratilgan diktant turidan foydalanish tavsiya etiladi.

Quyida ushbu diktant turining baholash mezonlari aks etgan:

Diktantni baholash mezonlari

Diktantni baholash mezonlari	Baholash tartibi	Ball
-------------------------------------	-------------------------	-------------

Nutqiy savodxonlik darajasi: matnning adabiy til me'yorlari (fonetik, leksik, grammatik, puntuatsion, uslubiy)ga amal qilingan holda yozilishi.	Diktantda orfografik, uslubiy va puntuatsion xatolar mavjud bo'lmasa –	70
	2 ta orfografik, 2 ta puntuatsion, 1 ta uslubiy xato mavjud bo'lsa –	65
	2 ta orfografik, 3 ta puntuatsion, 2 ta uslubiy xato mavjud bo'lsa –	60
	3 ta orfografik, 4 ta puntuatsion, 3 ta uslubiy xato mavjud bo'lsa –	55
	4 ta orfografik, 5 ta puntuatsion, 4 ta uslubiy xato mavjud bo'lsa –	50
	5 ta orfografik, 6 ta puntuatsion, 5 ta uslubiy xato mavjud bo'lsa –	45
	6 ta orfografik, 7 ta puntuatsion, 6 ta uslubiy xato mavjud bo'lsa –	40
	7 ta orfografik, 8 ta puntuatsion, 7 ta uslubiy xato mavjud bo'lsa –	35
	8 ta orfografik, 9 ta puntuatsion, 8 ta uslubiy xato mavjud bo'lsa –	30
	9 ta orfografik, 9 va undan ortiq puntuatsion, 9 ta uslubiy xato mavjud bo'lsa –	25
10 va undan ortiq orfografik, 10 va undan ortiq puntuatsion va uslubiy xato mavjud bo'lsa –	20	
Xatoliklar yuqoridagilardan ortiq bo'lganda –	15	
Xatboshi (abzats)ni to'g'ri ajratish malakasi 15 ball	Matndagi barcha xatboshilar to'g'ri ajratilgan bo'lsa –	15
	Matndagi xatboshilarning ayrimlari ajratilgan bo'lsa –	10
	Matndagi xatboshilar umuman ajratilmagan bo'lsa –	0

Tuzatishlarsiz va husnixat bilan yozish malakasi 15 ball	Matnda tuzatishlarga yo'l qo'yilmagan va husnixat bilan yozilgan bo'lsa -	15
	Matnda 1-2 ta tuzatishlarga yo'l qo'yilgan va husnixat bilan yozilgan bo'lsa -	10
	Matnda 3-4 ta tuzatishlarga yo'l qo'yilgan va husnixat bilan yozilgan bo'lsa -	5
	Matndagi tuzatishlar soni 5 dan ortiq bo'lsa, husnixati talabga javob bermasa -	0

Ballni bahoga almashtirish jadvali

Ball	Baho
86 - 100 ball	"5"
71- 86 ball	"4"
56 - 70 ball	"3"
0 - 55 ball	"2"

Bir xil va har xil tipdagi xatolar

- muayyan grammatik hodisa va bir orfografik, punktuatsion, uslubiy qoida bilan bog'liq nuqsonlar bir xil tipdagi xatolar hisoblanadi. Bir xil tipdagi xatolarning hammasi bitta xato sanaladi va bu baholash uchun mezon bo'ladi. Masalan, o'quvchi uch o'rinda h o'rnida bir so'zda x yozgan bo'lsa, hammasi bitta orfografik xato hisoblanadi;

- agar o'quvchi kirish so'zlarning yozilishida ikkita punktuatsion xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, hammasi bitta xato hisoblanadi;

- agar o'quvchi vergulning kirish so'zlarda, uyushiq bo'laklarda va bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida ishlatilish qoidalarini bilmasa, bularning har biri alohida-alohida xato sanaladi;

- agar o'quvchi yozma ishda qaratqich belgisini 2 o'rinda noto'g'ri qo'llagan bo'lsa, bitta uslub xatosi sanaladi.

Baholash - bu shaxs tomonidan amalga oshiriladigan baholash jarayoni, faoliyati (yoki harakati). Bizning taxminiy va umuman har qanday faoliyatimiz baholashga bog'liq. Baholashning aniqligi va to'liqligi maqsad sari harakatning ratsionalligini belgilaydi.

Ma'lumki, baholash funktsiyalari faqat tayyorgarlik darajasini tasdiqlash bilan cheklanmaydi. Baholash o'qituvchini o'rganish, ijobiy motivatsiya va shaxsga ta'sirini rag'batlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Aynan obyektiv baholash ta'siri ostida maktab o'quvchilarida o'z-o'zini baholash, o'z yutuqlariga tanqidiy munosabat shakllanadi. Shuning uchun baholashning ahamiyati, uning funksiyalarining xilma-xilligi maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularning identifikatsiyasini ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlashni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bilim va ko'nikmalarni baholashning amaldagi tizimi uning diagnostik qiymati va obyektivligini oshirish uchun qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL TA'LIMDAN FOYDALANISH

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 9- moddasi da umumiy o'rta ta'lim bosqichlari qo'yidagicha ko'rsatilgan:

1. Boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar)
2. Tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar)
3. O'rta ta'lim (X-XI sinflar) dan iborat ekanligi takidlangan.

Ushbu moddada "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi"[1.3]- deb takidlangan.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgandir"ligi takidlanib boshlang'ich ta'limning o'ziga xos jihatlari alohida ko'rsatilib bolaning samarali ta'lim va tarbiya olishida aynan ushbu bosqichning alohida o'rni mavjudligini e'tirof etadi.

Kichik maktab yoshidagi bola 6-7 yoshdan boshlab 10-11 yosh atrofida bo'lib, unga asosan 1-4-sinf o'quvchilari, ya'ni boshlang'ich ta'lim davri kiradi. Bu davrda bolalarda:

- maktabgacha davrdagi bola o'quvchi maqomi darajasiga yetadi;
- barcha tana a'zolari rivojlanish bosqichida bo'lib, lekin suyaklari xali to'liq qotib ulgurmagan bo'ladi;
- psixologik qo'zg'olish va tormozlanishi tez o'zgaruvchan bo'ladi;
- o'yin faoliyatidan ko'proq o'qish faoliyatiga o'tishi talab etiladi;
- maktabga borishga doir psixologik yo'nalish olish ishlari amalga oshiriladi.

Shuningdek, endigina maktabga qadam qo'ygan bola quyidagi turlardagi qiyinchiliklarga duch keladi:

- maktabga borishi bilan bolaning kun tartibining o'zgarishi;
- o'qituvchilar bilan tengdoshlari (sinfdoshlari) bilan muloqotda bo'lishi;
- egallagan bilimlarini amalda qo'llashi va h.k.

Interfaol (ingl. interaction-o'zaro ta'sir) **metodlar** - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.[5.185] Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Interfaol ta'lim- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Interfaollik- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaligidir.

O'qitishning interfaolliigi - o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirish va o'zaro ta'sir asosida tayyorgarlik samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biridir.

Interfaol mashg'ulot - o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot bo'lib jarayon hamkorlikda kechadi.

Interfaol metodlar o'zining quyidagi o'ziga xos jihatlari - bilan izohlanadi:

1. Interfaol metodlar o'qituvchi bilan o'quvchining faol munosabati, bir birini to'liq tushuntirishga asoslanadi.


2. Interfaol metodlarni o'quv jarayoniga joriy etishning tub maqsadi – dars qaysi shaklda bo'lmasin, qayerda o'tkazilmasin darsda o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlikda ishlashini va natijada o'zlashtirishlarini ta'minlashi lozim.

3. Bunda o'qituvchi faqat fasilitator (yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, kuzatuvchi, xulosalovchi) vazifasini bajaradi.

4. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Interfaol metodlarda o'qitishning mohiyati quyidagicha:

- o'rgatuvchi ham o'rganuvchi ham ma'lumotlar bilan faol ishlaydi;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- o'qituvchiga "o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish uchun" xizmat qilsa, o'quvchilarga esa, "fikrlashni o'rganishlari uchun" xizmat qiladi;



4- chizma. Interfaol usullardan foydalanish shakllari.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq

jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

3. **Interfaol grafik organayzerlar:** "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

BU – BIZNING O‘ZBEKISTON

Kavsar turdiyeva

Qaysi yerning nonlari

Kiritadi jonlarni?

Minoralari baland,

Bu sayqali

Qayerning zardo'zlari

Shirin-shakar so'zlari?

Mashhurdir dunyo aro,

Budir qadim

Alpomishning yeri u,

Chanqovuzning eli u.

Tog'lari qalqon go'yo

Albatta

Qaysi yerning lazgisi

Mo'jizaning naq o'zi?

Bu el juda ham azim

Hamma bilar

Yalo-yalo, yalola

Beravering savollar.

Barisi go'zal bo'ston

Bu bizning O'zbekiston.

“Arra” metodi. 2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi Kavsar Turdiyevaning “Bu- bizning O‘zbekiston” she‘rini o‘tishimizda ushbu metodni qo‘llab ko‘ramiz. Dastlab o‘quvchilar bilan she‘r matni yuzasidan berilgan topshiriq kichik guruhlarda bajariladi.

Mazkur metodga ko‘ra kichik guruh 4-5 o‘quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a‘zolari yangi mavzu yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydilar. Guruh ichida o‘quvchilar she‘rni qismlarga ajratib, bo‘lib oladilar. Har bir o‘quvchi o‘ziga tegishli qismini puxta o‘zlashtirib “mutaxassis” ga aylanadi.

Ma‘lum vaqtdan so‘ng har bir kichik guruhdagi “mutaxassis” lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o‘tkaziladi. Shu tarzda she‘r mazmunini barcha o‘quvchilar o‘zlashtirib oladilar.

Maqsadi: o‘quvchilarda muloqotlashuv, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

Vazifasi: o‘quvchilarni guruh bilan ishlash, guruh a‘zolariga o‘z fikrini tushuntirib, isbotlashga o‘rgatish.



CHUMOLINING JASORATI

Qadim zamonda turli-tuman gul va maysalarga burkan gan keng o‘tloq bo‘lgan ekan. U yerda qo‘y-qo‘zilar, kakliklar, tipratikanlar, toshbaqalar bilan birga turli hasharotlar ham ahilinoq yashar ekan. Bir yili yoz juda issiq kelibdi.



Yomg‘ir deyarli yog‘mabdi. Jazirama quyosh tig‘ida o‘simliklar qurib, qovjirab qolibdi. Shunday kunlarning birida yaylovga o‘t ketibdi. Kutilmagan yong‘in jonzotlarni vahimaga solibdi. Hamma tumtaraqay qocha boshlabdi. Birgina chumoli qochmabdi. U o‘tloq yaqinidagi buloqdan mitti og‘izchasida suv

keltirib, olovga purkay boshlabdi. Bu holni ko'rgan boshqa jonzotlar shunday deyishibdi:

– Ey chumoli, esingni yedingmi?! Sen olib kela- yotgan suv zarrasi bilan olov o'chib qolarmidi? Qo'y bu ishingni, joningni asra! Shunda chumoli yumushidan to'xtamay javob beribdi:

–To'g'ri aytasiz, bir zarra suv yong'inni o'chirmay- di. Lekin men urinib ko'rmoqchiman. Chunki bu o'tloq – mening vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo'lsa, shu imkoniyatdan foy- dalanaman.

Chumolining bu gapi o'tloq ahliga qattiq ta'sir qilibdi. Har tarafga chopayotgan jonzotlar birdan to'xtab, chumolining ortidan ergashishibdi. Asalari chelakchasida, kaklik tumshug'ida, qo'y-qo'zilarog'zida suv keltirib, olovni o'chirishga shoshilishibdi. Xullas, barcha jonzotlar bir yoqadan bosh chiqarib olovga suv sepishganida xuddi osmondan yomg'ir yog'gandek bo'libdi. Shu tariqa yong'in o'chirilibdi.

“Ikki qismli kundalik” metodi. “Ikki qismli kundalik” pedagogik uslub bo'lib, yozma nutqni rivojlantiradi. Bu uslub o'qib chiqilgan mavzu bo'yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog'lashga imkon beradi.

Ushbu metodni biz 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi Sa'dullo Quronovning “Chumolining jasorati” matnini o'tishimizda qo'llab ko'ramiz. Metoddan darsning mustahkamlash qismida foydalanish tavsiya etiladi.

1. bosqich. O'quvchilar matnni juftlikda navbat bilan past ovozda o'qiydilar.

2. bosqich. Hamma matnni o'qib bo'lganiga ishonch hosil qilib, daftarni vertikal chiziq bilan ikkiga bo'lish so'raladi.

3. bosqich. O'quvchilarga daftarning chap tomoniga muallif fikrlarini yoqqanlarini (yoki yoqmaganlarini) yozishlari aytiladi.

4. bosqich. O'ng tomonga o'quvchi mazkur fikrga berilgan o'zining izohini yozadi, ya'ni o'qilgan matn haqidagi tushunchasini umumlashtirib beradi.

5. bosqich. Topshiriqning shu qismi tugagandan keyin o'quvchilarga (o'z xohishiga ko'ra) bittadan fikrni va ularga yozilgan izohni o'qish taklif etiladi. Fikrlar va ularning izohlari o'qilayotganda savol berish yoki mazkur fikrga o'z izohini berish ruxsat etiladi.

6. bosqich. O'quvchilar sherik (uchliklar yoki kichik guruhlar) bo'lib ham ishlashlari mumkin.

Maqsadi: Vatanparvarlik hislatlarini o'quvchilarga o'rgatish. Vatanparvarlik na'munasini o'quvchilarga o'rnak sifatida talqin qilish. O'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishdan iborat.

Vazifasi: o'quvchilarning matn ustida mustaqil ishlash, mavzudan kerakli xulosa chiqarish malakasi shakllanadi.

3- sinf ona tili va o'qish savodxonligi fanining Milliy o'quv dasturida ikkinchi bo'lim "Tabiat ne'matlari" deb nomlangan. Mazkur bo'lim uchun 17 soat hajmda o'quv yuklama ajratilgan bo'lib, dastur bo'yicha o'quvchiga quydagi bilimlar hajmini egallash kerakligi keltirib o'tilgan.

O'zbekistonning o'ziga xos tabiati (tog'lar, cho'llar, daryolar,
hayvonlar)

Berilgan matn tarkibidan shaxs, narsa va joy nomlarini bildiruvchi so'zlar, ularning so'roqlari. Bosh harflar imlosi, kishilarning nomlari, hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar, joy nomlari, bayram va muhim sanalar, tashkilot va gazeta, jurnal nomlarining bosh harf bilan yozilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Tabiat tasvirida qo'llaniladigan til birliklari. Sinonimik qatordan uslubga xos ravishda foydalanishga oid mashq va topshiriqlar. Tabiatni tasvirlashda badiiy yondashuv, unda muallifning ifoda uslubi. Bir mavzudagi ikki xil tasvirni o'zaro qiyoslash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar.

Mavzu bilan bog'liq matn tarkibidan ketma-ket kelgan unli va undosh ishtirok etgan so'zlarning talaffuzi va imlosi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. So'zlarga so'roq berish va ular ifodalagan ma'noga ko'ra so'zlarning turkumlarga ajratilishi bilan bog'liq mashqlar. Rasm asosida og'zaki va yozma matn yaratish. Matn

g'oyasini ochib berish uchun eng ma'qul rasmni tanlay olish mashqlari. Antarktida – muz saltanati (tabiati, jonzotlari) Berilgan matn orqali bo'g'in, uning hosil bo'lishi, bo'g'inga ko'chirish qoidalari bilan tanishishga qaratilgan mashq va topshiriqlar. Matnning asosiy mohiyatini aniqlash, matnni qismlarga ajratish, ularning g'oyasi va xulosasini aniqlash bilan bog'liq topshiriqlar. Sanash ohangi bilan berilgan so'zlar va ularning orasida vergulning qo'llanishi. Sovuq o'lkalar haqida ishlangan multfilmlar voqealarini bayon qilish mashqlari. Fikrni bog'lash, asoslash, xulosalash va voqeaga ishora qilishda qo'llaniladigan til birliklari. Berilgan mavzu bilan bog'liq punktuatsiya va imlo me'yorlariga amal qilgan holda 5 yoki undan ortiq gap tuzib yoza olish. Berilgan matn tarkibidagi ayrim so'zlarning asos va qo'shimchalarga ajratilishi bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Dunyo okeanlari (okeanlar haqida) Hajm-o'lchovni bildirgan so'zlar va ular ifodalagan ma'nolarni tushunish hamda o'rinli foydalanishga oid mashqlar. Suv hayvonlari va ularni tasvirlashga oid topshiriqlar. Tabiat hodisalarining ijobiy tomonlari hamda salbiy oqibatlari haqida bahs. Matndagi so'zlarning shakliy va mazmuniy jihatlarini sharhlay olishga qaratilgan topshiriqlar. Gap hosil qilish uchun so'zlarni o'zaro bog'lash zarurligi, -ni, -ning, ga, -da, -dan qo'shimchalari so'zlarni so'zlarga bog'lashi haqida ma'lumot. Berilgan so'zlar tarkibidan shunday qo'shimchalarni ajrata olish, berilgan qo'shimchalarni so'zlarga qo'shish orqali ularni bog'lab gap hosil qilish bo'yicha mashq va topshiriqlar. Matn tarkibidagi gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ajrata olish, darak, so'roq va buyruq ohangi, ularda tinish belgilarining qo'llanilishi. Ko'plikda qo'llangan narsa va shaxs nomlarini ajratish, ko'plik qo'shimchasining talaffuzi va imlosi. Avvalgi bilimlarga tayangan holda berilgan matnni tahrir qilish (tinish belgilari, imlo, so'z qo'llash). Baraka daryosi (Amudaryo haqida)

Berilgan qisqa ma'lumotlar (masalan, joylashish o'rni, uzunligi, chuqurligi, sig'imi, yo'nalishi)ni matn ko'rinishida kengroq ifodalash mashqlari. Matnning qoralama nusxasini tayyorlash, uni tahrirlash.

Berilgan rasmlar asosida so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan o'rinli foydalangan holda mavzu yuzasidan fikr bilirish, bunda fikrning tartibli hamda mantiqli ifodalash mashqlari. Mavzu bilan mos keluvchi so'z va birikmalarni qo'llash bilan bog'liq mashq va topshiriqlar. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, darak gap, darak gaplarning aytilish ohangi, ularda tinish belgisining qo'llanilishi bilan bog'liq topshiriqlar.

Mustahkamlash darsi.

Mazkur bo'lim yuzasidan o'quvchilardan ta'lab qilinadigan bilimlar hajmi ancha keng bo'lib, o'quvchining samarali o'zlashtirishi uchun o'qituvchidan ham darslarni tashkil etishga zamonaviy yondoshuv asosida, turli axborot va pedagogik texnologiyalardan maqsadga muvofiq holda foydalanishi talab etiladi.

Mazkur bo'lim yuzasidan mustahkamlash darsini tashkil etishda "Yelpig'ich" texnologiyasidan foydalanishni qarab chiqamiz.

Yelpig'ich (VEER) METODI

Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, ko'pincha muammoli xarakterga ega bo'lgan mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, unda mavzuning barcha jihatlari (masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari, boshqa fazilatlar) to'g'risida bir yo'la sharh beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida belgilanadi va tegishli muhokama etiladi.

Bu interfaol metod o'quvchilarda tanqidiy, tahliliy, aniq, mantiqiy fikrlashning muvaffaqiyatli rivojlanishiga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilish qobiliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Yelpig'ich metodi umumiy mavzuning ayrim jihatlari alohida muhokama qiluvchi kichik guruhlarining hamda har bir ishtirokchining va shu bilan birga, butun guruhning faol ishlashini tashkil qilishga yo'naltirilgan.

Yelpig'ich metodini mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llash mumkin:

- boshlanishida: o'quvchilarning bilimlarini erkin faollashtirish;

- mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;

- yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Bu metodni qo'llashda mavzu bo'yicha quyidagi asosiy tushunchalar o'rganiladi:

• mavzuga tegishli tushunchalar, nuqtayi nazarlar, predmet, hodisalar;

• afzallik – biror narsa bilan qiyoslagandagi ustunlik, imtiyoz;

• nuqson—nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik;

• fazilat – ijobiy sifatlar;

• xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish.

Yelpig'ich metodi ta'lim maqsadidan tashqari tarbiyaviy xarakterdagi quyidagi vazifalarni amalga oshirish imkonini ham beradi:

• jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;

• muammolar, vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan muhokama qilish mahorati;

• murosali qarorlarni topa olish mahorati;

• o'zgalar fikriga hurmat;

• xushmuomalalik;

• ishga ijobiy yondashish;

• faollik;

• muammoga diqqatini jamlay olish mahoratini shakllantirish va mustahkamlash.

2- sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligida Shukrullo Abdullayev qalamiga mansub "Yalqov va Qunduz" matni berilgan bo'lib ushbu mavzu orqali o'quvchilarda tabiatni asrash, tabiat ne'matlaridan foydalanish, ekologik tarbiya elementlarini shakllantirishni, hayotda doim xushchaqchaq va quvnoq harakatchan

bo'lish kabi xususiyatlarni tarbiyalashga qaratilgan. Biz mazkur mavzuni o'qitishda "Tushunchalar tahlili" metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning matnni ongli tavishda idrok etishlari, so'z boyligining oshishi, mantiqiy fikrlash kabi muhim sifatlarni rivojlantirishimiz mumkin.




Qunduz haqida eshitganmisiz? U qanday hayvon?



YALQOV VA QUNDUZ

Bir kuni Yalqov do'sti Qunduzning oldiga kelib dedi:

– Menga o'rmondagi eng qo'li yengil tabibni topib ber. Keyingi vaqtlarda tobim yo'q, yurishga toqatim, turishga madorim, gapirishga istagim yo'q. Qaniydi senga o'xshab bardam va tetik bo'lsam.



Qunduz Yalqovning aslida soppa-sog'ligini, uning birdan bir kasali tanballik ekanini bilgani uchun shunday dedi:

Senga o'zimning tabiblarimni tavsiya qilaman. Ular tufayli men doim sog'lomman.

Men ularni taniymanmi?

Albatta, taniysan. Ularning biri – O'rmon tabib. Men uning bag'rida yayrab yashayman. Musaffo havosidan to'yib nafas olaman. Mevalaridan to'yib yeyman. Ikkinchisi – Daryo tabib. Uning suvlarida miriqib cho'milaman. G'uborlarim tarqab, yengil tortaman. Uchinchisi va eng saxovatlisi – Quyosh tabibdir. U faqat meni emas, butun olamni o'zining issiq tafti bilan davolaydi. Barchaga hayot, umid bag'ishlaydi.

Bu tabiblar doim biz bilan birga. Negadir, sen buni his qilmayapsan. Menimcha, sen dangasalik kasaliga chalingansan. Bilib

qo'y, bu kasallikni faqat mehnat va harakat bilan yengish mumkin. Ana shundagina tabiatdagi tabiblar senga ham yordam beradi.

Yalqov va qunduz mavzusini o'qitishda "Tushunchalar tahlili" metodini qo'llash yaxshi samara beradi.

"Tushunchalar tahlili" metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o'quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki taqdimot orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: "Yalqov va qunduz" matni bo'yicha tavsiya

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?
O'rmon	
Mador	
Bardam	

Tabib	
Tanbal	
Dabgasa	
Tobi yo'q	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga o'quvchilar tomonidan fikr bildiriladi. Izoj yoziladi.

Boshlang'sinf o'quvchilarida 1- sinfdan boshlab kreativlikni rivojlantirish, ularda muammoni tahlil qilish to'g'ri va samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. 1- sinf o'quvchilarida mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qila olish, tanqidiy fikrlash bilan bog'liq amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

1-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 2- qismida Kamola Sodiq qizi qalamiga mansub "Mehmon bo'lish odobi" matni keltirilgan. Mazkur mavzuni "T- chizmasi" metodi asosida o'qitilsa, o'quvchilarda tanqidiy- tahlil, analitik tafakkur rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.



MEHMON BO'LISH ODOBI

Xadicha mehmonga borishni juda yaxshi ko'radi. U ko'pincha ota-onasi bilan bobosinikiga boradi. Ularni ko'rgan bobosi ham xursand bo'ladi. Mehmonlar uchun **tuzalgan** dasturxon **noz-ne'matlarga** to'lib ketadi. Bobosining aytishicha, **mehmondo'stlik** – xalqimizga xos odat.



Mehmonda o'zini tutishiga qarab, bolaning odobi haqida bilib olish mumkin ekan. Buni Xadichaga bobosi aytgan. Masalan, odobli bola **dasturxonga** o'tirishdan avval, albatta, qo'llarini yuvadi. Yoshi kattalardan oldin taomga qo'l uzatmaydi. Ovqatni o'ng qo'l bilan o'z oldidan yeyish, luqmani shoshilmay, og'izni yumib chaynash ham odob belgisi hisoblanadi. Aqlli bola taom tayyorlaganlarga rahmat aytishni uyda ham, mehmonda ham unutmaydi.

T-chizmasi metodining tasnifi.

Muammoni qo'yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarni ta'riflash va yechib ko'rishga imkon beradi.

1. Bosqichlari: ishtirokchilar kichik guruhlariga bo'linadi. Flipchart qog'ozlaridan foydalanib, T-chizmasi tavsiya etiladi va asar

qahramonlarining xarakter xususiyatlari ochib berilishi barobarida ularning ijobiy hamda salbiy xususiyatlari ajratiladi.


2. To'ldirilgan sxemaning taqdimoti. Foydalanish doiralari. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchi matn bilan ishlashda, obrazlarning ijobiy, salbiy va murakkablik darajasini tahlil qiladi, muammolar tahlil qilinadigan mavzularni o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Afzalliklari. Ushbu sxema obrazlarning ijobiy, salbiy va murakkablik hamda o'zaro bog'liqligi, ularning ayrim xususiyatlarini aks ettiradi.

“T- chizmasi” metodida tarqatma materialning ko'rinishi.

Ijobiy odatlar

Salbiy odatlar



O'quvchilar “T- chizmasi” metodida mavzu yuzasidan berilgan vazifani bajarish jarayonida mavzuning mazmunini ongli idrok etishlari, mulohaza qilishlari asosida intellektual jihatdan rivojlanishlari kuzatiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida biz tavsiya qilayotgan shu kabi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda bilimlarni rivojlantirish hamda ta'lim maqsadiga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Mavzu uchun to'g'ri tanlangan interfaol metodlardan foydalangan holatda dars jarayonini tashkil etish o'qituvchi va

o'quvchi uchun ham sinf xonadagi ijobiy muhitni yaratadi. O'quvchilar jamoada ishlash, mustaqil izlanish, erkin fikrlash, muammoli vaziyatlarning yechimini topa olish hamda maqsadli foydalanish kabi bilim, ko'nikma va malakalarini egallab oladilar.

Boshlang'ich ta'limning rang barangligi o'qituvchining ta'lim berish va o'quvchining ta'lim olish bilan bog'liq faoliyatining serqirraligi boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu sababli o'qituvchi ta'lim jarayonida didaktik o'yin yoki interfaol metodlarga tayanib qolmasdan turli pedagogik texnologiyalar asosida ham ta'limni tashkil etishga e'tibor berishi kerak. Mana shunday texnologiyalardan biri sifatida TRIZ (Теория решения изобретательских задач) texnologiyasini tavsiya etishimiz mumkin.

Ixtiroga oid masalalarni yechish nazariyasi yoki TRIZ - texnik muammolarni yechish va texnik tizimlarni takomillashtirish usullarining to'plamidir. 1946 yilda muhandis, olim va fantast yozuvchi Geynrix Altshuller Bokuda ixtirochilar tomonidan eng ko'p ishlatiladigan muammolarni yechish usullarini o'rganishni boshladi. Hammasi bo'lib, u 40 ta texnikani ajratib ko'rsatdi, ularni ixtirochilik masalalarini hal qilish nazariyasi deb atadi.

U texnik masalani hal qilish savolga hali ham javob bo'lmagan paytga olib keladi degan xulosaga keldi, ammo ko'plab variantlar mavjud. Har bir ixtirochi o'zini shu vaziyatda topadi. Altshuller shuningdek, muammoning eng samarali yechimi sizda mavjud bo'lgan resurslar (moddiy, vaqtinchalik, fazoviy, insoniy va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi, degan xulosaga keldi. Shunda javob aniq bo'ladi.

1980-yillarda ushbu nazariya sovet maktablarida o'qitish metodikasi uchun asos bo'lib olingan va fabrikalarda qo'llanilgan. Ammo keyinchalik bu amaliyot unutildi.

1989 yilda xalqaro TRIZ assotsiatsiyasi tashkil etildi.

TRIZ yoki ixtirochi muammolarni yechish nazariyasi - bu ijodiy yondashuvga asoslangan muammolarni yechish va tizimlarni

takomillashtirish usullari to'plami. Ya'ni, bu ijodkorlikni o'qitishning deyarli yagona tizimli nazariyasi, shuning uchun TRIZ-da muammolarni hal qilishda baholash va yagona to'g'ri javob yo'q.

TRIZning maqsadi: moslashuvchan fikrlash va xayolotni rivojlantirish, murakkab masalalarni nafis va samarali tarzda hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

TRIZ pedagogikasining g'oyasi- boy moslashuvchan tizimga ega bo'lgan ijodiy va ijodiy ixtirochilik muammolarini hal qilishning kuchli qurol-yarog'iga ega bo'lgan va munosib hayotiy maqsadga ega bo'lgan tasavvur.

TRIZ pedagogikasining shiori - "Hamma narsada ijodkorlik!".

TRIZ dasturining mohiyatini quyidagicha shakllantirish mumkin: qarama-qarshilikni hal qilishga asoslangan ideal natijaga intilish. va turli xil resurslardan foydalangan holda, atrofdagi dunyoning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi, u mashg'ulotlar o'tkazish.

TRIZ asosida ijodkorlikni rivojlantirishda o'quvchining kognitiv faoliyatini soddadan murakkabga qarab yo'naltirish maqsadga muvofiq. Masalan:

1-Topshiriq. Menda bitta olma, Dilshodda bitta olma bor. Men olmamni Javohirga berdim, u menga olmasini berdi. Har bir bolada nechtadan olma bor?

2-Topshiriq. Menda bitta g'oya bor va Dilshodda bitta g'oya bor. Men unga o'z g'oyamni aytdim, u ham menga o'z g'oyasini aytdi. Har kimning boshida qanchadan g'oya bor? Ikkalamizda nechta g'oya bor?

TRIZ texnologiyasidan pedagogik vaziyatlar orqali ham foydalanish mumkin. Masalan: Kapalak va yomg'ir matni orqali ko'rib chiqamiz.

Bir kunlik kapalak erta tongda uyg'onib, hayotda juda baxtsizligini angladi: butun osmonni bulutlar qoplagan, ezib yomg'ir yog'ardi. Ko'rinib turibdiki, butun kun yomg'ir yog'adi, uning butun

hayoti! Lekin u juda ham uchishni, dunyoni ko'rishni, hayotining yorqin va quvnoq o'tishini xohlaydi! Nima qilish kerak?

Ushbu ajoyib muammoni 2-3-sinf o'quvchilari TRIZ texnologiyasi asosida hal qilishadi. Qo'yilayotgan muammo:

1-topshiriq: Nima uchun kapalak yomg'irda ucha olmaydi?

O'quvchilar tomonidan berilgan javoblar:

1. Qanotlari namlanib, og'irlashib ketishi va uni silkitishga kuchi yetmagani uchun.

2. Qanotlardagi chiroyli naqshni yomg'ir yuvib tashlaydi.

2- topshiriq. Kapalakni o'rab turgan narsalarni eslang? Yer, havo, shamol, bulutlar, yomg'ir tomchilari, o'tlar, barglar, gullar, daraxtlar, hayvonlar, odamlar. Shu so'zlardan foydalanib: kapalakni dunyo go'zalliklarini ko'rishiga, yordam berish yo'llarini o'ylab toping. Qisqa matn tuzing.

3-topshiriq O'ylab ko'ring. Yomg'ir yog'ishdan to'xtamasa kapalakka dunyoni ko'rishi, dunyo go'zalliklaridan bahramand bo'lishi uchun qanday yordam berish mumkin. O'quvchilar tomonidan quydagi fikrlar bildiril:

1. Qanotlarni yog'lasin, shunda tomchilar toyib tushib ketadi.

2. Qanotlarini selofan plyonka yoki nozik barg bilan yopsin.

3. Bulutdan yomg'ir kamida bir soat to'xtab turishini so'rash kerak.

4. Soyabon ostida yoki parashyutda uchish kerak.

5. Gullar tagidan uchib o'tsin.

6. Qanotlarini ochmay, faqat oyoqlari yordamida yursin.

1- sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi mavzular asosida ham TRIZ texnologiyasidan foydalangan holda o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, eruditsiya, intellektual rivojlanish va tadqiqotchilik ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. 1- sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 2- qismida "Ixtirolar sarguzashti" kitobidan olingan "Gugurtga qadar" matni keltirilgan. Matn yuzasidan o'ituvchi kitobida ham bir qator topshiriqlar keltirilgan.

GUGURTGA QADAR

Eng qadimgi odamlar olov yoqishni bilishmagan. Ularga olovni tabiatning o'zi sovg'a qilgan. Yashin tushgan vaqtda daraxtlarga o't ketadi. Odamlar esa yonayotgan daraxt shoxini olib qochishgan. Keyin gulxan yoqishgan. Bir odam gulxanni tunu kun qo'riqlab, o'chib qolmasligiga javob bergan. Shu tariqa gulxan oylar, yillar davomida o'chmagan.



Keyinchalik, odamlar gugurtni ixtiro qilishdi. Hozir olov yoqish juda oson ish. Biroq xavfsizlik qoidalarini hamma ham bilarmikan?!

Mazkur matn yuzasidan ham "Robinzon usuli" dan foydalanib TRIZ texnologiyasi asosida o'quvchilarda nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiq etish, mantiqiy fikrlab to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. "Robinzon usuli"ning tavsifi. Tasavvur qiling siz kimsasiz orolda yolg'izsiz. Yashash uchun kurashishingiz kerak. Orolde mavjud shart- sharoitlar o'qituvchi tomonidan tasvirlab beriladi. O'quvchilarga mana shunday sharoitda qanday qilib yashab qolish, inson hayotida olovning o'rni, qanday qilib gugurtsiz olov hosil qilish mumkinligi vazifasi haqida fikr yuritish vazifasi topshiriladi. Vazifani bajarishni juftlikda va kichik guruhlarda tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

O'qituvchi o'quvchiga zamon talablariga mos bilimlarni berishi uchun, avvalo, o'zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo'lishi kerak. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchisi yutuqlarining asosi bolalar bilan o'tkaziladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalar va uning mazmunini yanada boyitishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar katta ahamiyatga ega:

1. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiyadan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

2. Yangi pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llashda interfaol metodlar singari zamonaviy o'qitish metodlari yanada qo'l keladi. Ta'lim-tarbiyada zamonaviy o'qitish metodlari deganda yangi interfaol metodlar nazarda tutiladi.

3. Interfaol" tushunchasi ingliz tilida "interact", (rus tilida "interaktiv") ifodalanib, lug'aviy ma'nosi "inter"-o'zaro, ikki taraflama, "act-harakat qilmoq" kabi ma'nolarni anglatadi, ular dars samaradorligini oshirishga yordam beradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda juda yaxshi natija beradi.

4. Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbqiq etib ushbu jarayonda interfaol metodlardan foydalanar ekanmiz. O'quvchilarning yosh va individual-psixologik o'ziga xos xususiyatlari albatta inobatga olinishi lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari qiziquvchan, boshqarishga moyil bo'ladilar. O'quvchilarning yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe'l- atvori har xil bo'lishiga qaramay o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatishi lozim.

5. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini samarali tashkil etishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari dastavval **ta'lim tamoyillari** bilan **pedagogik texnologiya tamoyillarini** chuqur bilishlari va interfaol metodlardan foydalanish jarayonida ulardan chetga chiqmasliklari, ularga to'liq amal qilishlari lozim. Chunki interfaol metodlardan foydalanib darslarni o'qitish jarayonida ba'zi bir o'qituvchilarning darslarni to'liq "o'yinga" aylantirib qo'yayotganlik holatlari ham uchramoqda. Interfaol metodlardan foydalanar

ekanmiz, albatta, mavzu va uning maqsadidan chetlab ketmasligimiz lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy o'qitish metodlari bolalar o'rtasida do'stono muhit, o'zaro yordam, hamkorlikni yuzaga keltiradi, ulardan o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shunday ekan, biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'z darslarida interfaol metodlardan o'rinli foydalanib, samarali ta'lim – tarbiya ishlarini olib borishga chorlaymiz.

XULOSA

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchida fanga oid kompetensiyalar bilan birga tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchisiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili va o'qish savodxonligi fani o'quvchi shaxsida fikrlashga, o'zgarlar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy (kommunikativ) kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchida til qurilishiga oid o'zlashtiriladigan amaliy bilimlarni (fonetika (orfoepiya), leksika, so'z tarkibi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) yosh xususiyatiga mos ravishda rivojlantirish vazifasini ham amalga oshiradi.

Yuqorida keltirilgan dolzarb vazifalarni samarali hal qilish boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslarini samarali tshkil tish orqali amalga oshirish mumkin. Ta'lim jarayonida o'quvchilar voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va o'qish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda quyidagilarga amal qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Ta'lim berishda kommunikativ yondashuv, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan, onglilik, kashfiyotchilik, farqli va tanqidiy yondashuvlar e'tiborda bo'lishi lozim.

2. Tilni amaliyotda qo'llash, ya'ni matnni o'qish orqali ham grammatika, ham uning qo'llanishini o'rgatishga asoslaniladi.

3. O'qish savodxonligi doirasida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish, o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish, tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish, har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish nazarda tutiladi.

4. Barcha uslubdagi turli sohalarga oid matnlar bilan tanishish barobarida mashq va topshiriqlar orqali fanlararo integratsiya amalga oshiriladi.

5. O'quvchining o'qib, eshitib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini umumiy holda rivojlantirish maqsadida ularning har biriga alohida e'tibor qaratiladi.

6. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga o'rgatish orqali ijodiy tafakkuri, fikrlash doirasi shakllantirib boriladi.

7. Yozma nutq bilan bog'liq beriladigan topshiriqlarda bolaning bog'lanishli nutqini o'stirish, matn yaratish ko'nikmasini rivojlantirish maqsadida savollar, rasmlar yoki kuzatuvlar asosida matn tuzish bilan bog'liq mashq va topshiriqlar berib boriladi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida noto'liq matnni to'ldirish, berilgan namuna asosida yozish, taqdim etilgan tanlovlar asosida yozish, savollarga ketma-ketlikda javob yozish, syujetli rasmlar

asosida matn yozish kabi nostandart topshiriqlarga alohida e'tibor qaratilgan

8. Har bir mashg'ulot tilni o'zlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida tashkil etiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanidan darslarni tashkil etishda mahoratli pedagog darsning har bir daqiqasidan unimli foydalanadi. Dars jarayonida topshiriqlardan samarali foydalanish orqali, balki baholash jarayoni orqali ham o'quvchilarning ona tili va o'qish savodxonligidagi bo'shliqlarni bartaraf etish mumkin. Baholash o'qituvchiga o'quv jarayonidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va keyingi rejalarni shu asosda tuzish imkonini yaratadi. Ushbu baholash turi o'quv dasturi, o'qituvchi hamda o'quvchining o'zaro aloqasini ta'minlashga xizmat qiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanining boshqa fanlardan farqi shundaki bu fan doirasida o'quvchilar turli janrdagi matnlar bilan tanishadilar, ularda ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. Bu fanni o'qitishni boshlang'ich sinflarning barcha fanlar bilan integratsiyalashning imkoniyati katta, bu esa o'quvchiga atrof- olamni yaxlit idrok etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни (2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон) // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон // <https://lex.uz/docs/5013007>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 5712-son Farmoni

3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2016

4. Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich ta’limdan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. – T.: RTM, 2017. – 215 b.

5. Avliyakov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari -T.: 2001.

6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar: o‘quv qo‘llanmasi. Qarshi, Nasaf. 2000.-80b.

7. Tolipov O‘, Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –T.: “Fan” 2005 yil.

8. Qosimov A.X, Xoliqova F. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. –T.: TATU 2004 yil.

9. Makulova B. Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qishni tashkil etish. Monografiya. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. – 95 b.

10. Husanboyeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. Monografiya. – T.: 2003.B – 48-70.

11. Marasulova U. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning adabiy- nazariy tushunchalarini shakllantirish va takomillashtirish. Ped.fan.nomz. diss. –T.: 2007. – B 25-26.

12. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012. – 144 b.

13. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet.

14. Baholash nazariyasi asoslari [Matn]/ Komil Jalilov. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 256 b.

15. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 1-sinf uchun/ I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.

16. Ona tili va o'qish savodxonligi 1 Metodik qo'llanma [Matn]: o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. A. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

17. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 120 b.

18. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 128 b.

Elektron resurslar

1. www.edu.uz
2. www.kitob.uz
3. www.sammoi.uz
4. www.ziyonet.uz
5. www.gazeta.uz
6. www.rtm.uz



ISBN 978-9943-8319-1-9



9 789943 831919